

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS TA'LIM MARKAZI

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ЦЕНТР СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**REVO MARKOVICH PETROV,
BOTIR JUMANIYAZOVICH MATYOQUBOV**

CHOLG'USHUNOSLIK VA CHOLG'ULASHTIRISH

Musiqa va san'at kollejlari uchun o'quv qo'llanma

ИНСТРУМЕНТОВЕДЕНИЕ И ИНСТРУМЕНТОВКА

Учебно-методическое пособие для музыкальных колледжей

Taqrizchilar: **V. L. Melkomini** — O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi damli va zarbli cholg‘ular kafedrası professori,
J. S. Saburov — V. Uspenskiy nomidagi RMAL damli va zarbli cholg‘ular bo‘limi boshlig‘i,
M. Mirzakirov — Respublika musiqachilar tarbiyalovchi maxsus maktab-internati damli cholg‘ular bo‘limi boshlig‘i, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi katta o‘qituvchisi.

Petrov R. M., Matyoqubov B. J.

Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirish. O‘quv qo‘llanma. (O‘zbek va rus tillarida). — T.: «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2006. — 192 bet.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma musiqiy kasb-hunar kollej va akademik litseylarining o‘quvchilari hamda damli cholg‘ular orkestrlari rahbarlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ish faoliyatida uchraydigan yengilroq pyesa, qo‘shiq va raqs kuylarini mustaqil cholg‘ulashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kitobda damli cholg‘ular orkestri tarkibi, uning guruhlari, cholg‘u asboblari to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar berilgan va cholg‘ulashtirishning asosiy tamoyillari bayon qilingan hamda ushbu kasb bilan shug‘ullanuvchilar uchun zaruriy bilimlar keltirilgan.

Shuningdek, qo‘llanmada partitura eskizini tuzish, uni rasmiylashtirish va orkestr partiyalari (ovozlari)ni yozish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham keltirilgan.

Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirishga aloqador misol va namunalar damli cholg‘ular orkestrining deyarli keng tarqalgan kichik tarkibiga mo‘ljallangan.

Qo‘llanma boshidan oxirigacha dasturda ko‘rsatilgan darslarga mos keladigan o‘quv materiallari sifatidagi amaliy mashqlardan tashkil topgan.

O‘quv qo‘llanmadan foydalanuvchilar elementar musiqa nazariyasi va garmoniya asoslarini bilishlari shart.

В настоящем учебно-методическом пособии даются общие сведения о духовом оркестре, его группах, инструментах и рассматриваются основные приемы инструментовки, знание которых является обязательным для каждого, приступающего к работе такого рода.

Одна из целей пособия — развитие навыков и умений составления эскиза, оформления партитуры и оркестровых партий (голосов).

Материал как по инструментоведению, так и непосредственно по инструментовке даётся применительно к малому составу духового оркестра, как наиболее распространенному.

Пособие построено по урокам с соответствующим учебным материалом для практических упражнений.

Для пользующихся этим пособием является обязательным знание элементарной теории музыки и основ гармонии.

Настоящее учебно-методическое пособие предназначается для учащихся музыкальных колледжей, Академических лицеев и руководителей духовых оркестров, которым приходится сталкиваться с необходимостью самостоятельно инструментовать несложные пьесы, песни или танцы.

CHOLG'USHUNOSLIK



SO‘ZBOSHI

Taqdim qilinayotgan o‘quv qo‘llanmada damli cholg‘ular orkestri tarkibi, cholg‘u sozlari va uning guruhlari to‘g‘risida, cholg‘ulashtirish ishi bilan shug‘illanuvchilar uchun zaruriy bilimlar va shu fanning asosiy tamoyillari haqida umumiy ma‘lumotlar berilgan.

Kitobga orkestr partiturasini eskizini tayyorlash, partituraning rasmiylashtirish va orkestr partiyalari (ovozlari)ni tuzish to‘g‘risida tushunchalar ham kiritilgan.

Nota misollari kichik hajmdagi damli cholg‘ular orkestriga moslashtirilgan ko‘rinishlar sifatida keltirilgan bo‘lib, amalda berilgan asar doirasida cholg‘ulashtirishning turli usullarini qo‘llash mumkin.

Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirishga aloqador barcha masalalar kichik tarkibdagi damli cholg‘ular orkestri hajmidan kelib chiqqan holda o‘z yechimini topadi.

O‘quv qo‘llanma mavzularga mos o‘quv materiallari bo‘yicha amaliy mashqlar uchun tuzilgan.

Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirishga kirishish uchun musiqaning elementar nazariyasi va garmoniya asoslari fanlari bo‘yicha bilimlar talab qilinadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma musiqiy akademik litsey va kollejlarda o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

DAMLI MUSIQIY CHOLG'ULAR TARIXIY MA'LUMOT

UMUMIY TASNIFI

Ko'pchilik damli cholg'ular inson nafasi — dami yordamida puflab chalinadi. Ana shu sababdan ular «damli» cholg'ular deb nomlanadi. Damni puflash orqali cholg'u asbobi ichiga qamalgan havo harakatga keltirilishi natijasida tovush hosil bo'ladi.

O'zining tabiati, tovush hosil qiluvchi — qo'zg'atuvchi omillariga ko'ra damli cholg'ular fleyta-naysimon-xushtaksimon, tilli-trostli va voronkasimon munshtuklilarga tasniflanadi.

Topshiriq. 1. Damli cholg'ular tovush hosil qilinishi jihatidan qanday guruhlariga taqsimlanishini ayting.
2. Ularni tasniflang.

FLEYTA-NAYSIMON (LABIAL-XUSHTAKSIMON)

Ushbu cholg'uda ijrochi kuchli nafasining cholg'u teshigining o'tkir qirrasini (labial teshigi)ga urilib kesilishi natijasida tovush hosil bo'ladi. **Okarinasimon dengiz chig'anog'i va sopoldan yasalgan cholg'ular ham xushtaksimonlar turiga kiradi.**

To'g'ri ushlab chalinadigan (продольные) fleytalar ikkala tomoni ochiq naylar bo'lib, ularning har xil uzunlikdagi ko'p naychalilari ham mavjud. Ushbu cholg'ularning uchiga sozanda labiga mos maxsus boshcha kiygiziladi yoki puflanadigan teshikning yarmisini til bilan berkitish orqali nafas uning o'tkir qirrasiga yo'naltiriladi.

Yonlama — gorizontall ushlab chalinadigan fleytalarining bosh tomoni tiqin bilan mahkamlab qo'yiladi va ichiga qamalgan havo oqimi bir tomonlama harakatlanadi.

Tilli-trostli cholg'ularda tovush hosil qiluvchi membrana ularning tillari — trostlari hisoblanadi. Ushbu guruhga: cho'l qamishining qovjiragan bo'lagini ip bilan qattiq bo'g'ib, bir-biriga biriktirib-qapishtirib bog'langan yoki yoniga qirqilgan ikki yassi-plastinkasimon g'arov qamishdan yasalgan tilchaning biriktirilgan turi, sakrovchi tilli-garmonika, figarmoniya va boshqalar kiradi.

Voronkasimon munshtuklilarda ijrochi labining qimtilgan markaziy qismlari tovush qo'zg'atuvchi membrana vazifasini bajaradi. Bunda ijrochi labi, chakka va yuz mushaklarining mujassam holdagi harakati, chiniqqanligi va mahorati *ambushyur* deb ataladi. Ijrochi munshtukka labini zichlab joylashtiradi va tiqilib turgan nafas qo'yib yuborilishi natijasida lablarning markaziy qismini harakatga keltiradi. Shu bilan *ambushyur* boshqa damli cholg'ulardan farqli o'laroq, voronkasimon munshtuklilarda faqat tovush hosil qilish jarayonida ishtirok etibgina qolmasdan, bevosita qo'zg'aluvchi manba vazifasini ham bajaradi. Fleyta-naysimon, tilli-trostli cholg'ularda ham lab apparati *ambushyur* deb ataladi va har birida (fleytachi uning yordamida nafasni labium teshigiga yo'llaydi, trostli cholg'u ijrochisi esa trostni lablari bilan qamrab-o'rab oladi va uning tebranishini boshqaradi) o'ziga xos vazifani bajaradi.

Kasbiy ijrochilikda qo'llaniladigan fleytasimon va tilli-trostli cholg'ularning barchasi yog'ochdan yasalmasa-da, ularni *yog'ochli* (деревянные) *damli cholg'ular* deb yuritiladi. Voronkasimon munshtuklilarni esa *mis* (медные) *cholg'ular* deyiladi.

Damli cholg'uning naychasi ichiga qamalgan havo ustunining tebranishi (tovush balandligi) naychani uzun yoki qisqaligiga bog'liq. Ya'ni nay qancha uzun bo'lsa (tovush past eshitiladi), tebranish susayadi va aksincha, nay qisqa bo'lsa (tovush yuqori bo'ladi), tebranish tezlashadi. Bundan tashqari *ambushyurni* zo'raytirish va nafas bosimini kuchaytirish (передувания)

natijasida nafaqat umumiy tebranishini oshirish, balki havo ustunini 2, 3, 4 va undan ham ko'proq teng qismlarga taqsimlash mumkin. Umumiy havo ustuni jaranglaganda asosiy tovush (ton)ni ifodalaydi. U teng ikkiga taqsimlanganda asosiy tovushni oktava yuqoriga, teng uchga taqsimlanganda duodetsimaga, teng to'rtga taqsimlanganda esa ikki oktava yuqoriga ko'taradi. Damli cholg'ularida nafas bosimini kuchaytirish (передувания) orqali hosil qilinadigan bunday tovushlar izchilligi tabiiy tovushqator deb yuritiladi, tovushlarning o'zlari esa tabiiy — *oberton tovushlar* deyiladi. Goboy, klarnet, fagot cholg'ularida nafas bosimini kuchaytirish (передувания) maxsus «oktava ochqichlari» yordamida amalga oshiriladi. Namuna uchun katta oktava *do* tovushidan misol keltiramiz.

Aytib o'tilganidek, asosiy tovushning nisbiy balandligi cholg'u naychasining uzun yoki qisqaligiga bog'liq. Lekin obertonlar oralig'idagi intervallar asosiy tovushning nisbiy balandligiga bog'liq bo'lmasdan, doimo muqim, o'z holicha sadolanadi. Ya'ni birinchi va ikkinchi oberton oralig'i (interval) oktava, ikkinchi va uchinchi sof kvinta, uchinchi hamda to'rtinchi sof kavarta va h.k. Ko'rib turganimizdek, ravon temperatsiya tizimidagidek, obertonlar orasidagi intervallar nomdosh va muvofiq emas. Ammo bu nomuvofiqlik tabiiy tovushlarni amalda qo'llash uchun to'siq bo'la olmaydi. Shunday bo'lsa-da, yettinchi, o'n birinchi, o'n uchinchi va o'n to'rtinchi obertonlar ravon temperatsiya gammalaridan o'zlarining nosoz tovushlardek eshinishi bilan ajralib turadi. Lekin shunga qaramasdan, ushbu obertonlar xromatik cholg'u asboblari yaratilmasdan oldin tabiiy valturna va trubalarda qo'llanilib kelingan.

Damli cholg'ular juda qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, ularning qo'llanilishi taxminan Paliolit — tosh asri (milodgacha 80—13-ming yil)ga borib taqaladi. Dastlab naysimon — fleyta, truba, dengiz chig'anog'idan yasalgan — truba, Neolit — yangi tosh asriga kelib (miloddan oldingi 5—2-ming yil) teshikli nay — fleytalar, Pan fleytasi, yonlama fleyta, yonlama truba, yakka va qo'sh tilli naylar, metall trubalar paydo bo'lgan. Zamonaviy cholg'ushunoslikda qabul qilingan cholg'ular yaratilishining ushbu izchilligi mashhur nemis cholg'ushunosi Kurt Zaks (1881—1959) tomonidan taklif qilingan.

Fleyta-naysimon va tilli-trostli damli cholg'ular to'g'ri silindr teshik nay, konussimon va ba'zida teskari konussimon bo'lishi mumkin. Oddiy fleyta va trostli cholg'ularda uncha ko'p bo'lmagan tabiiy tovushlarni hosil qilish mumkin. Pan fleytasida esa naychalar sonining uzun-qisqaligiga qarab turli tovushlar hosil qilingan (naycha qancha qisqa bo'lsa, tovush shuncha yuqori chiqadi). Ammo ijro jarayonida naychalarni almashtirish sozanda mahoratini qiyinlashtirgan. Natijada havo ustunini uzun bir nay ichida jamlab, teshiklar teshish fikri tug'ilgan. Teshiklarning sozanda og'zi tomonga qarab ochib borilishi natijasida tovush yuqorilagan yoki aksincha, pastlab borgan. Barcha teshiklarning yopilishi nay havo ustunining to'liq tebranishini tashkil qilgan.

Fleyta qadimgi Misrda (to'g'ri naychalisi *mim* deb atalgan, besh teshikli yonlamasi ham bo'lgan), Palestrinada (to'g'ri ushlanadigan ochiq fleyta — *ugab* deyilgan), Xitoyda (*pan* fleytasining boshqacha ko'rinishi — *paysyao*, to'g'ri naychali olti teshikli fleyta — *syao*, bambukdan yasalgan xuddi shunday yonlama fleyta — *di* deb yuritilgan. Ushbu cholg'u teshiklarining bittasi sozlash va yana birisi tovush tusini o'zgartirish, qolganlari esa chalish uchun ishlatilgan. Shuningdek, olti teshikli sopoldan ishlangan *syuan* nomli fleyta ham bo'lgan), Hindistonda (yonlama fleyta — *vansha*, to'g'ri fleyta — *layyu* deb yuritilgan) keng qo'llanilgan. Samarqandning Mo'minobod qishlog'idan topilgan, miloddan besh ming yil oldingi suyakdan ishlangan besh teshikli nay o'sha davrda bu cholg'uning O'rta Osiyoda ham keng tarqalganligidan darak beradi. Qadimgi Gretsiya va Rimda fleyta nisbatan kam ommalashgan. Uning o'rniga *sirinks* va *flajolet* deb nomlangan (yuqori registrlı *pan* fleytasining boshqacharog'i) turi iste'foda qilingan.

Qadimgi dunyo mamlakatlarida fleytalardan tashqari tilli-trostli cholg'ular ham keng tarqalgan. Qadimgi Greklarning sevimli cholg'ularidan biri *avlos* bo'lib, u to'g'ri konus shaklidagi naychadan iborat 3—4 yoki olti teshikli qo'sha tilli cholg'u hisoblanadi. Sozanda bir vaqtning o'zida ikki avlosda (qo'shnay yoki qo'sh bulamon singari) chalgan va bir avlosda kuy ijro qilinsa, ikkinchisida o'zgarmaydigan jo'r bo'luvchi ohang cho'zib turilgan. Eramizga yaqin asrlarda avlos takomillashtirilgan va ijro teshiklari ikkalasida 15 tagacha yetkazilgan. Ularning bir

nechtasi ijro jarayonini osonlashtirish uchun aylanma halqachalar bilan berkitiladigan bo'lgan. Avlosdan teatr tomoshalariga, badantarbiya mashg'ulotlariga jo'r bo'lishda va harbiy yurishlarda foydalanilgan. *Pifiya* (past tovushli) va *xor* (yuqori tovushli) avloslari mashhur hisoblangan. Rimda avlos *tibiya* deb yuritilgan.

Qadimgi Misrda turli uzunlikdagi ikkita bir-biriga birlashtirilgan, qush tumshug'iga o'xshash munshtukli, yakka tilli nay *argul* deb yuritilgan. Uning qisqa nayida 6 ta teshik bo'lib, uzuni bir teshikdan iborat. Argulning ikkita nayida ham bir vaqtning o'zida avlosga o'xshab chalingan. Arab *zumrasining* ikkala nayida ham, *arguldan* farqli o'laroq, barmoqlar bosish uchun teshiklar ochilgan. Goboyga o'xshagan cholg'ular Xitoyda *guan* va *sona* deb yuritilgan.

Yevropa *goboyining* kelib chiqishi O'rta asr Sharq goboyimonlarining ikkitasi bilan bog'liq. Bular: Hindiston *zurnasi* va Arabiston *zamridir*. O'sha davrda Yevropa sozandarlari Sharq ijro uslubini qo'llagan holda cholg'u naypachog'i — dudikni og'iz bo'shlig'iga to'liq kiritgan holda chalganlar. Bunda tovush erkin holda bo'lib, juda qattiq va bir xilda (monoton) jaranglagan. O'rta asrlarga kelib G'arbiy Yevro'pa goboyimonlar oilasi paydo bo'ldi. Bular *shalmey* deb atalgan konussimon shakldagi *diskant* va *soprano* surnaychalari, *alt* va *tenor pommerlar*, *bas bombardlar* va katta *bas pommerlar*dir. Ushbu cholg'ular tovushqatori asosan diatonik bo'lib, turli sozlanishda ikki oktavani tashkil qilgan. XVI asrga kelib, ushbu cholg'ular oilasining umumiy diapazoni kontroktava *fa* dan uchinchi oktava *si* gacha, ya'ni besh yarim oktavani tashkil qilgan.

Yog'ochli damli cholg'ularning takomillashtirilishi, avvalambor, ulardagi barmoq bilan bosiladigan teshikchalarning ko'payishi bilan bog'liq. Ushbu teshiklar bir-biri bilan turli oraliqda joylashganligiga qarab, asosiy va ochqichli-klapanlilarga bo'linadi.

Asosiy yopiladigan teshiklar orqali cholg'uda diatonik tovushqator hosil qilish mumkin bo'ladi. Odatdagidek, asosiy teshiklar pastki klapanlarni muvofiqlashtiruvchi halqachalar bilan ta'minlangan bo'lib, ular birga bosilganda eng pastki tovushlarni ham hosil qilish imkoniyati tug'iladi. Goboy, klarnet va fagot cholg'ularining asosiy teshiklariga qarama-qarshi orqa tomonida oktava teshikchalari bo'lib, ular ijrochiga nafas bosimini kuchaytirishga yordam beradi. Oktava obertonidan foydalanishda applikator o'z holida qoladi (fagot cholg'usida birmuncha murakkabroq) va oktava yuqori jaranglaydi.

Fleyta, goboy va fagotlar «oktavalanuvchi» cholg'ular turiga kiradi. Ularda juft va toq obertonlarni birdek chiqarish mumkin. Klarnet esa «kvintalanuvchi» hisoblanadi. Ushbu cholg'uda nafas bosimi kuchaytirilishi natijasida asosiy tovushga nisbatan oktava orqali kvinta hosil qilinadi va juft obertonlarni chiqarish imkoniyati yo'q.

Zamonaviy mis damli cholg'ularning kelib chiqishi juda qadimiy bo'lib, ularning ibtidolari har xil dengiz chig'anoqlari va hayvonlar shoxlari hisoblanadi. Hayvon shoxlari — bug'u va fil tishlaridan ishlangan karnaylar inson ovozidan kuchli tovush chiqargani uchun turli chaqiriq — signallar va ogohlantirishlar uchun ishlatilgan. Ularda bir nechta tabiiy tovushlar hosil qilingan va ovozlari yoqimsiz bo'lsa ham quyi obertonlar yaxshi sadolangan. Qadimgi Misr, Palestrina, Gretsiya va Rimda harbiy karnay sifatida uzun metall truba keng tarqalgan. Qadimgi Xitoyda *dachun-ku* (og'iz qismi kengaygan) va *syao-chun-ku* (og'iz qisim kichraygan) nomli karnaylar keng tarqalgan. Qadimgi Hindistonda *shankxa* (dengiz chig'anog'idan yasalgan) va *rana-sringa* nomli shoxdan yasalgan cholg'ular ommalashgan.

Ibtidoiy jamoa tuzimida slavyan drujinalari oddiy cholg'ularni qo'llashgan. Drujinani yig'ish va harbiy signallar uchun bug'u shoxlaridan qilingan cholg'ulardan foydalanishgan. X—XI asrlarga doir yilnomalarda turli truba va bubnalar qo'llanilganligi aytilsa, Kiyev Sofiya sobori (XI asr) rasmlarida fleyta va uzun trubalar tasvirlangan. 1151-yilgi Ipatev yilnomasida yozilishicha, Kiyev drujinalarining yurishlari trubalar ohangi ostida boshlangan. Yuriy Dolgorukiy knyazligida (1151-yil) qo'shin miqdori bayroqlar, truba va barabanlarning soni bilan o'lchangan.

XII asrga kelib trubalar va burg'u (shox)lar o'rtasida aniq bo'linish sodir bo'ladi. Trubalar harbiy yurishlarda qo'llaniladigan bo'lsa, burg'ular asosan minora qorovullari, ovchilar va cho'ponlar cholg'usiga aylandi. Salb yurishlarida (1096—1270) trubalar harbiy qurolga tenglashtirilib, yuqori tabaqalilar aslahasi hisoblangan.

Oddiy burg'ular Yevropaning ko'pchilik xalqlari tomonidan o'rta asrlargacha qo'llanilib kelingan. Bunda burg'uning uch turi ajralib chiqqan bo'lib, bular: kichik (sink), o'rtacha va butun burg'ular. Ular ho'kiz shoxlaridan yasalgan. XVI asrga kelib shoxni egik-bukik shaklda yasash rasm bo'lgan. Shu zaylda aylana shakldagi ovchilar yoki o'rmon burg'usi, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida esa kichik hajmdagi signal yoki pochta burg'usi vujudga kelgan. Germaniyada uch aylanali ovchilar burg'usi yasalgan.

Munshtukli damli cholg'ularning keyingi takomillashishi, avvalambor, ularning tabiiy tovushqatorining to'ldirilishi bilan bog'liq. Natijada uzun tor menzurali (menzura — truba quvurining uzunligiga nisbatan tor yoki kengligi) cholg'ularda tabiiy tovushqatorning ikkinchi obertonidan o'n oltinchi obertonigacha, kalta keng menzurali cholg'ularda esa ikkinchidan oltinchi va sakkizinchi obertonlargacha sadolantirish imkoniyati tug'ildi. Mis damli cholg'ularning takomillashtirilishi bilan ijrochilik mahorati ham orta bordi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida yangi klarino (lotinchada *clarius* — *aniq*) deb nomlangan ijro texnikasi paydo bo'ldi. Bunda tabiiy tovushqatorning yuqori bo'lagidan maksimal foydalanilgan holda hosil qilingan tovushlar ketma-ket va ravon jaranglaydi. Cholg'uning yuqori registridan muntazam foydalanish ijrochidan yuksak mahoratni talab qilgan. Bunday ijro texnikasining yuksak namunalari A.Vivaldi (1678—1741), G.Gendel (1685—1759), I.S.Bax (1685—1750) asarlarida o'z aksini topgan. Mis damli cholg'ularning xromatik turlarini yaratish bo'yicha izlanishlar valtornaning takomillashtirilishida kuzatiladi. Bu izlanishlar kutilmagan natijalarga olib keldi. 1760-yili F.Kelbel tomonidan tajriba qilib ko'rilgan (klapanli) ochqichli valtorna keng menzurali — byulgelgornlarning yaratilishiga asos bo'ldi va ular damli cholg'ular orkestrlarida keng qo'llanila boshlandi.

XIX asr boshlariga kelib, mis cholg'ular uchun aylanma moslama (вентельный механизм) ixtiro qilinishi, mazkur cholg'ular imkoniyatini kengaytirgan bo'lsa ham tabiiy tovushqatorli cholg'u asboblari tovush tembri jihatidan xromatiklashtirilganlarga qaraganda ustunlikni qo'ldan bermaganlar. Aylanma moslama ikki xil bo'lib, ularning birinchisi pompali yoki pistonli, ikkinchisi aylanma harakatlanuvchidir. Pompali turi dastlab berlinlik ustalar F.Blumel va G.Shtyolsellar tomonidan 1814-yili valtorna uchun qo'llanilgan. Aylanma moslama esa 1832-yili venalik usta P.Ridel tomonidan yaratilgan. Aylanma moslama bir necha turli uzunlikdagi qo'shimcha naycha-trubka (kron)lardan tashkil topadi. Har bir kronning o'z ventil-aylanma moslamasi bo'lib, u bosilganda (aylanganda) kron trubkasi umumiy quvurga ulanadi va umumiy sozni ma'lum intervalga pasaytiradi.

Trombondan tashqari barcha xromatik mis damli cholg'ular uchun asosiy aylanma moslama — ventil bilan ta'minlangan. Ularning birinchi ventili cholg'uning umumiy sozini 1 tonga, ikkinchisi 1/2 tonga, uchinchi 1,1/2 tonga pasaytiradi. Agar uchalasi bir vaqtda bosilsa, cholg'u umumiy sozi 3 tonga pasayadi (1824-yili angliyalik usta J.Shou va 1850-yili belgiyalik ixtirochi A.Sakslar tomonidan cholg'u umumiy sozini ko'taruvchi tizim o'zini oqlamadi va ommalashmadi). Kronlarni qo'shgan paytda shuni hisobga olish kerakki, asosiy trubaning ba'zi bir tovushqatorlari zarur uzunlikka aniq o'zgaradi: ya'ni uni 1/2 tonga pasaytirish uchun trubaning umumiy uzunligiga nisbatan 1/15ga, 1 tonga pasaytirish uchun 1/8ga, 1 yarim ton pasaytirish uchun 1/5ga teng kronlar zarur. Ikki yoki uch kronlar bir vaqtning o'zida qo'shilganda oradagi nisbat keskin o'zgaradi. Birinchi va ikkinchi ventil bir vaqtda bosilganda trubaning umumiy uzunligi 1/5ga emas, balki birinchi kron ham qo'shilganligi uchun biroz qisqaroq bo'ladi. Baravariga uchta kron ham qo'shilganda esa oradagi tafovut yanada sezilarli bo'ladi (bunda umumiy tovushqator 3 tonga pasayishi o'rniga 2 3/4 tonga pasayadi). Shu sababdan ham yuqoridagilarni hisobga olgan holda har bir kron belgilangan o'lchamlardan ozgina uzunroq qilib yasaladi va ventillar kombinatsiyalarida intonatsiya jihatidan sof tovushlar jarangdorligiga erishiladi. Shunga qaramay uchinchi ventil qo'shilgan kombinatsiyalarda asosiy va qo'shimcha trubkalarda sezilarli o'zgarish ro'y beradi.

Ba'zi mis cholg'ularda kvarta ventiling qo'llanilishi I va II obertonlar oralig'ining xromatik intervallar bilan to'ldirilishiga imkon yaratadi. Amalda esa barcha ventillar kombinatsiyasi yordamida hosil qilingan tovushlar biroz balandroq sadolanadi. Barcha to'rt ventilning bir vaqtda bosilishi truba umumiy sozini 5,1/2 ton pasaytirish o'rniga bor yo'g'i 5 tonga pasaytiradi. Ammo

kvartventilning qo'llanilishi boshqa ventillar umumiy ishini osonlashtiradi. Shuningdek, kvartventil cholg'u asbobi umumiy tovush ko'lami (diapazoni)ni katta tersiya pastga kengaytiradi. Mis damli cholg'ular ichida kulisali moslama faqat trombonga xosdir.

Topshiriq. 1. *Tovush hosil qilishi bo'yicha damli cholg'ular qanday turlarga ajratiladi?*
2. *Ularni ta'riflang.*

O'RTA OSIYO XALQLARI MUSIQIY DAMLI CHOLG'ULARI

NAYSIMONLAR

G'ajir nay, cho'pon nay cholg'usi to'g'ri silindrik shakldagi ikki tomoni ochiq nay bo'lib, cho'l burgutining ichi g'ovak suyagidan ishlanadi. Uzunligi 300mm barmoq bilan bosib chalinadigan 4 ta teshikchadan iborat diatonik tovushqatorga ega. U cho'ponlar amaliyotida ko'proq qo'llaniladi va lirik tarzda kichik kuylar ijro qilishga qulay.

Ishvalak — turli qush va jonzotlar shaklida sopoldan yasaladi va har xil bo'yoqlar bilan bezatiladigan xushtaksimon cholg'u. Uning xushtak hosil qiladigan bitta teshigi va barmoq bilan bosiladigan bitta teshikchasi mavjud. Ishvalak asosan bolalar o'yinchog'i sifatida qo'llaniladi.

Nay — silindrik shaklda 400—600mm uzunlikdagi yonlama cholg'u bo'lib, mevali daraxt yog'ochidan (yog'och nay), bambukdan (g'arov nay), oq misdan (mis nay), latundan (brinj nay) yasaladi. Tuva xalqlarida nayga o'xshash cholg'u *lembi* va Buryatlarda *limbo* deb yuritiladi. Nayda barmoq bilan bosiladigan 6 ta asosiy teshik bo'lib, ulardan tashqari puflash uchun teshik, yog'och va g'arov naylarda puflash teshigi va asosiy teshiklari orasida bitta hamda quyi qismida yana to'rtta teshiklar mavjud, bularning barchasi nay tovushiga chiroyli tus berish uchun ochilgan. Nayning tovushqatori diatonik bo'lib, ikki yarim oktava (birinchi oktava *lya* dan to'rtinchi oktava *re*) tovush ko'lamiga ega (namunaga qarang).

Ikkinchi oktava *lya* va undan yuqori tovushlar nafas bosimini kuchaytirish yo'li bilan hosil qilinadi. Sozandalar ijro davomida va, ayniqsa, yuqori tovushlarni hosil qilganda murakkab (asosiy pardalarda o'rta barmoqlarni ochgan holda «вилочный») applikaturani qo'llaydilar. Nay teshiklarini yarim ochgan holda esa xromatik tovushqator hosil qilish mumkin. Nay texnik jihatdan harakatchan, tovushi xushtaksimon kuchli va baland.

Nay yakka ijroda, cholg'ular ansamblida va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibida keng qo'llaniladi.

Kichik nay (nay-pikkolo) asosan o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida foydalaniladi. Tuzilishi jihatidan oddiy nayga o'xshash, lekin sal kichikroq, tovushqatori diatonik bo'lib, ikki yarim oktavani tashkil qiladi. Katta nayga nisbatan kvarta baland va yozilishiga qaraganda oktava yuqori eshitiladi. Qoraqalpoq va tojik xalqlarida ham qo'llaniladi va shunday nomlanadi.

TILLI-TROSTLI CHOLG'ULAR

Balaban, bulomon (fors. *balabam, bolo* — baland, *bom* — past) silindrik shakldagi quvurining uzunligi 300mm bo'lib, karnaychasi ustki tomonidan qalinlashtirib, mevali yog'ochdan yasalgan cholg'u. Bulamonning trosti — dudiki yakka tilli, uning tili g'arov naychanning ustki tomonidan kesib-tilib ochilgan. Bulamonda barmoq bilan bosiladigan 8 ta teshik mavjud. Shulardan bittasi asosiy teshiklarga qarama-qarshi, ya'ni orqa tomonda joylashgan. Tovushqatori diatonik bo'lib, lab boshqaruvi natijasida xromatik tovushqator hosil qilinadi. Tovush ko'lami ikki oktavadan sal oshiq oralig'ida (kichik oktava *sol* dan ikkinchi oktava *sol (lya)* gacha). Uning tovush tembri bo'g'iqroq bas tusda bo'lib, asosan baxshilar ansambli tarkibida va ba'zan yakka holda ham qo'llaniladi. Dramatik va fojaviy dostonlar musiqalari bulamonsiz ijro etilmagan. Hozirgi davrda ham shimoliy O'zbekiston, asosan Xorazm va Qoraqalpog'istonda baxshilar ansamblilarida keng qo'llaniladi.

Qo'shnay g'arov qamishdan yasalgan 220—250 mm uzunlikdagi juft naylardan tashkil topgan cholg'u bo'lib, naylarining bosh tomoni yopiq va uchlaridan 5 sm uzunlikda tilchalar kesib ochilgan. Tilchalar ip bilan xomut qilinib yuqoriga va pastga (sozlash uchun) suriladigan qilib bog'langan. Qo'shnayda barmoq bilan bosiladigan 7 (ba'zan 8)ta teshik ochilgan. U ikki oktavaga yaqin, birinchi oktava *re* dan ikkinchi oktava *si* (uchinchi oktava *do* gacha) diatonik tovushqatorga ega bo'lib, ikkinchi oktava tovushlari asosan nafas bosimi (передувания) va lab boshqaruvi natijasida hosil qilinadi. Lab boshqaruvi va teshiklarini yarim ochgan holda xromatik tovushqator hosil qilish mumkin. Qo'shnay tovushi kuchli, mungli ohangga ega. Asosan yakka, ansambl va o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida qo'llaniladi. Hozirgi davrda Xorazm, Toshkent va Farg'onada keng tarqalgan.

Sibiziq (bizillovchi ma'nosida) 150mm uzunlikdagi g'arov qamishdan yasalgan cholg'u. Uning bosh qismida tilcha kesib ochilgan, barmoq bilan bosiladigan uchta teshigi bor. Tovushqatori diatonik. Sibiziq cho'ponlar cholg'usi bo'lib, unda sho'x-o'ynoqi kuylar chalinadi. U turkmanlarning *dilli-tuyduqiga* o'xshaydi.

Surnay — (fors. *sur* — to'y, bayram, *nay* — qamish, *to'yda chalinadigan nay* degan ma'noni bildiradi) o'zining tuzilishi va tovush hosil qilinishi jihatidan goboyga ibtido bo'lgan cholg'udir. Surnay tanasi 400—450mm uzunlikdagi mevali (o'rik, tut, yong'oq) yog'ochdan silindrik, ba'zan konussimon shaklda, karnaychasi kengaytirilgan holda yasaladi. Uning barmoq bilan bosiladigan 8 ta teshigi bor. Shulardan bittasi asosiy teshiklarga qarama-qarshi, ya'ni orqa tomonida joylashgan. Teshiklarining oralari mis halqachalar bilan halqalangan. Surnay tili — dudiki oddiy qamishdan ip bilan qattiq bo'g'ilib, bir-biriga qapishtirib yasaladi va surnay mil niliga kiygiziladi. Mil, o'z navbatida, cholg'u tanasiga o'rnatilgan bakcha (tanaga nisbatan boshqacha mevali yog'ochdan ishlangan)ga kiygiziladi. Mil-nilda esa aylana yoki bukik ellips shaklidagi (hayvon shoxi, suyak, sadaf yoki metallidan ishlangan) ijrochi labiga tiralib, nafasni tashqariga chiqishidan muhofazalab turadigan halqa o'rnatiladi. Surnay bir yarim, ikki oktava hajmidagi diapazon va diatonik tovushqatorga ega. Surnayning tovushi keskin va juda o'tkir bo'lib, unda tovush hosil qilish murakkab hisoblanadi. Bu jarayon uzluksiz nafas bilan ijro qilish mahoratini talab etadi.

Bu nafas turi O'zbekiston surnaychilarida *qaytarma nafas* yoki Xorazmda *dam aylantirish* deyiladi va hozirgi davrda ham keng qo'llaniladi. Bunda ijrochi lunjini shishirgan holda zaxira havoni lunjda saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida zaxiradagi havoni chakka mushaklari yordamida surnay naychasiga yo'llaydi. Natijada o'pkaga havo ham olinadi va surnayga yuborilayotgan nafasda ham uzilishga yo'l qo'yilmaydi.

Surnay cholg'usining kelib chiqishi juda qadimiy bo'lib, bu haqdagi ma'lumotlar miloddan oldingi qal'alar devorlaridagi tasvirlar va o'rta asr miniaturalarida aks etgan. Surnay harbiy yurishlar, to'y, sayl va bayramlarda asosiy cholg'u sifatida karnay, nog'ora va doiralar ishtirokidagi cholg'ular ansamblida qo'llanilgan.

O'zbekistonda ikki xil surnay mavjud bo'lib, Farg'ona — Toshkent surnayi menzurasi kengroq bo'lganligi sababli tovushi mayin va nolali, Xorazm surnayi esa menzurasi nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq. Ikkala surnayda ham tovush ko'lami bir xil bo'lib, pastki tovushi birinchi oktava *do-diyez* dan boshlanib, nafas bosimini kuchaytirish natijasida ikkinchi oktava *si* (uchinchi oktava *do*) tovushgacha bo'lgan diapazonni o'z ichiga oladi. O'zbek xalq cholg'u orkestri tarkibiga kiradi.

MUNSHTUKLI CHOLG'ULAR

Bug' — sopoldan ishlangan 350mm uzunlikdagi truba bo'lib, undan qadimda tegirmon don yanchish uchun tayyor ekani yoki shahar hammomi suvi isib, yuvinish uchun tayyor bo'lganini bildirish uchun chaqiriq chalingan.

Karnay (fors. *qarn* — shox, *nay* — qamish) hayvon shoxidan yasalgan nay yoki Sharqdagi yana bir nomi burg'u (bug'u shoxi) degan ma'nolarni bildiradi. Karnay birinchi — latundan yasalgan, uzunligi 3 metrcha keladigan to'g'ri, ba'zan bukik, qo'ng'iroqsimon karnayli tabiiy oberton tovushqatorli cholg'u. Uning tovushi juda kuchli bo'lib, ijro paytida karnaychi karnay

og'zini har tomonga yo'naltirgan holda (barchaga eshitilsin uchun) chaladi. Karnay qadimdan harbiy yurishlarda, to'y, sayil va bayramlarda surnay, nog'ora va doiralar jamlangan ansambl tarkibiga kirgan. Bu cholg'u hozirgi davrda ham keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, 6 ta doira ikki nog'ora, bir surnay, bir sintezatordan tashkil topgan «Abbos», «Tantana» va boshqa guruhlar tarkibiga 4, gohida 6 ta karnaylarning kiritilishi bunday ansamblarning xalqaro miqyosda tanilishiga olib keldi.

- Topshiriq.** 1. O'rta Osiyo damli cholg'ulari nomlarini ayting.
2. Ular qanday guruhlarga taqsimlanadi? Bu cholg'ularni tasniflang.

PROFESSIONAL DAMLI CHOLG'ULAR

YOG'OCHLI DAMLI CHOLG'ULAR

FLEYTA

(Lot. — *flauto*, fran. — *flute*, nem. — *flote*, ingl. — *flute*)

Fleyta juda qadimgi damli cholg'ulardan biridir. Uning dastlabki namunalari ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi. Bu cholg'u dengiz chig'anoqlari, hayvon suyaklari yoki g'arov qamishdan yasalgan. Qadimda yonlama va to'g'ri fleytalardan birdek foydalanilgan. To'g'ri (ikki tomoni ham ochiq) fleytalarga nafas bosh tomonidan puflangan. Yonlama fleytalar bosh tomonining yonidan ochilgan teshikdan puflangan va shuning uchun ham u gorizontol holatda ushlangan.

Fleytalar evolutsiyasidagi eng yorqin sahifa ularning barmoq bilan bosiladigan teshiklarining ochilishi hisoblanadi. Teshiklar, avvalo, nayning pastki tomonidan boshlab ochilgan. Keyinchalik ko'p yillar o'tishi bilan yuqori tomonga qarab teshiklar soni ko'paya borgan. Dastlabki fleytalarda 4—5 ta teshik bo'lgan.

To'g'ri fleytalar ham tobora takomillasha borib, avvalo, puflanadigan boshchasi qush tumshug'iga o'xshatib kesilgan va keyinchalik xushtak hosil qiluvchi moslama bilan ta'minlangan. Moslamaning o'tkir qirradi puflangan nafas kesilishi, ya'ni xushtak hosil bo'lishini osonlashtirib, aniq tovush chiqishiga imkon yaratgan.

O'rta asrlarda Yevropada fleytalar keng tarqalgan bo'lib, qush tumshuqli to'g'ri fleyta nemischa *schnabeflote* (*blockflote*), shvegell (*schwegel*) va ruspufayfe (*ruspfeif*) cholg'ularining ibtidosi hisoblanadi. Shuningdek, yonlama va to'g'ri juft naydan tashkil topgan, bir teshikdan puflanuvchi moslama o'rnatilgan qo'sha to'g'ri fleyta (*doppel — blockflote*)lar ommalashgan. Xalq musiqiy amaliyotida *pan* fleytasi ham qo'llanilgan.

Yevropada fleytaning asosiy vatani Germaniya hisoblanib, u yerda «nemis fleytasi» nomini olgan.


Fleytaning tanasi buk daraxtidan silindrik shaklda yasilib, tepa yonida puflash uchun bitta va barmoq bilan bosish uchun 6 ta teshiklar ochilgan. Naychasining tor va uzun o'yilishi tovush hosil qilishni yengillashtiradi va tovush tusi yoqimlilikini ta'minlaydi. To'g'ri fleyta esa xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, keyinchalik minezinger (o'rta asr nemis shoir-qo'shiqchi)larining sevimli cholg'usiga aylangan.

XVI asr oxirlarida yonlama fleyta naychasi konussimon shaklda o'yib yasaladi va bu tovush hosil qilishni yanada osonlashtiradi hamda intonatsiya sofligiga erishish uchun birmuncha imkon yaratadi. Fleytaning bosh qismi cholg'uni sozlash uchun suriladigan qilib ishlangan. XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib, yonlama fleytaning nayi tovush tusini yanada yaxshilash uchun teskari konussimon qilib o'yilgan va uch qismga bo'lingan. Bunday ixtiro cholg'uni sozlashda tarkibiy qismlarni muvofiqlashtirish uchun qilingan.

Yonlama fleyta tobora takomillashishi natijasida XVII asr oxiri va XVIII asrda to'g'ri fleytani orkestr tarkibidan butunlay siqib chiqargan. Yonlama fleytaning yana bir ustun tomoni u turli

registrlarda har xil jaranglagan, to'g'ri fleytaning tovushi esa nozik va sadolanishi bir xillik kasb etgan.

XVIII asr boshlarida yonlama fleytani takomillashtirish davom etadi. Uni aniq sozlash va yanada qulaylashtirish uchun nayining o'rta bo'g'ini ikkiga taqsimlanadi. Shu asr o'rtalariga



kelib *fa*, *sol-diyez*, *si-bemol*, *do* klapanlari o'rnatiladi. Bu hol murakkab applikaturadagi kombinatsiyani qo'llamasdan turib, to'liq xromatik tovushqator hosil qilishga imkon yaratadi. Fleytaning diapazoni ikki yarim oktava (birinchi oktava *re* dan uchinchi oktava *lya*)gacha kengaydi. Bu davrga kelib fleyta bosqichlariga halqali moslama o'rnatildi va halqalar muayyan pardalarni sozlash uchun moslashtirildi. Shu bilan nemis fleytasi rivoji yakun topdi.

1847-yili Yevropada nemis virtuoz fleytatchisi va kompozitori Teobald Byom metall dan (ba'zan kumushdan) ixtiro qilgan fleyta keng tarqala boshladi. Byom fleytasining nayi silindrik shaklda bo'lib, uning bosh qismi oldingi fleytaga nisbatan biroz uzunroq qilib ishlangan. Shuningdek, cholg'u menzurasining aniq belgilanganligi, barmoq bosqichlarining kengroq ochilganligi, barmoqlar uchun juda qulay, o'ziga xos bosqichlar tizimi ijrochi uchun o'ta murakkab texnik passajlarni ham yengil chalish imkoniyatini tug'diradi. Ushbu ixtiro uchinchi oktava tovushlarini chiqarishni ham yengillashtiradi. Hozirgi davrda o'sha ko'rinishi istifoda qilinmoqda.


Katta fleyta yoki oddiy fleyta tanasi silindrik shakldagi, uzunligi 700 mm menzura aylanasi 15—20 mm metall yoki yog'ochdan yasaladigan cholg'u. Fleyta uchta: bosh, o'rta va quyi qismga yoki ikkita: bosh va tana qismlarga bo'linadi. Bosh qismida ambushyur teshikchasi, yanada yuqoriroqda cholg'u umumiy sozini muvofiqlashtirish uchun buramali tiqin mavjud. Fleytada ambushyur teshikcha qirrasiga puflash orqali tovush hosil qilinadi.

Fleytaning barcha teshiklari berkitilganda qo'shimcha klapanlarni qo'llash orqali kichik oktava *si*, birinchi oktava *do*, *re-bemol* tovushlari chalinadi. Birinchi oktava *re* dan boshlab ikkinchi oktava *do-diyez* gacha bosqichlarni navbatma-navbat ochib borish orqali xromatik tovushqator hosil qilinadi. Ikkinchi oktava *do* dan uchinchi oktava *do-diyez* gacha bo'lgan xromatik tovushqator nafas bosimini kuchaytirish natijasida oktava klapani orqali chiqariladi. Uchinchi oktava *do-diyez* dan yuqori tovushlar murakkab applikatura yordamida amalga oshiriladi. Fleytalar transpozitsiya qilinmaydigan cholg'ular turiga kiradi.

Fleytaning diapazoni va tasnifi.

FLEYTA TURLARI

Kichik fleyta — fleyta pikkolo (italyan. — *flauto piccolo*, frans. — *petite fluto*, nem. — *kleine flote*, ingl. — *piccolo*) XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib keng tarqaldi. Uning hajmi katta fleytaga qaraganda ikki barobar kichik bo'lib, ikki qismdan: bosh va tana qismlardan tashkil topgan. U eng baland tovushlarni hosil qiluvchi cholg'u hisoblanadi. Kichik fleyta tovushlari skripka kalitida ifodalanadi va yozilishiga qaraganda oktava yuqori eshitiladi.



Kichik fleyta diapazoni va registrlarining tasnifi.

Texnik imkoniyatlari jihatidan kichik fleyta kattasidan uncha farqlanmaydi. Ammo badiiy mahorat katta fleytada ustun turadi. Fleyta pikkolo orkestrda yog'ochli damli cholg'ular yuqori tovushqatorining yanada uzaytirish va umumiy tovush jarangdorligiga jilo qo'shish uchun ishlatiladi. Ko'pincha yakka holda ham qo'llaniladi.

Fleyta alt (italyan. — *flauto conmalto*, frans. — *fluto alto*, nem. — *alt fote*, ingl. — *alto flute*) asosiy fleytadan o'zining uzunligi, menzurasining biroz kengligi bilan ajralib turadi. Applikaturasi katta fleyta bilan bir xil. Fleyta alt transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, yozilishiga qaraganda

kvarta past (*sol* tizimida) eshitaladi. Ba'zan yozilishiga qaraganda kvinta past eshitaladigan *fa* tizimidagi alt fleytasi ham uchrab turadi.

Diapazoni va registrlarining tasnifi.

Fleyta altning pastki registri fleytaga qaraganda keng to'liq sadolanishga ega bo'lib, quyuc tusdagi chiroyli va bebaho tovushga ega. Texnik imkoniyati jihatidan ham asosiy fleytadan qolishmaydi.

D'Amur fleytasi (*lya* sozidagi) asosiy fleytaga qaraganda kichik tersiya past sadolanadi va sal kattaroq hajmi bilan ajralib turadi. XVIII asr o'rtalari va XIX asr boshlarida keng ommalashgan.

Bas fleyta — **albizifon** (italyan. — *flauto basso*, frans. — *flaute basse*, nem. — *bassflote*, ingl. — *basso flute*) deb ham yuritilgan. U XX asr boshlarida ixtiro qilingan bo'lib, hozirgi davrda uncha qo'llanilmaydi. Ushbu fleytaning ikki xil: yonlama va to'g'ri shakldagi turlari mavjud. Bas fleyta asosiysiga qaraganda ikki baravar uzun. Tovush hosil qilinishi va applikatora jihatidan bir xil. Skripka kalitida ifodalanadi va yozilishiga qaraganda bir oktava past eshitaladi.

- Topshiriq.**
1. *Yog'ochdan yasalgan damli cholg'ularni ayting.*
 2. *Fleyta cholg'usining tarixiy kelib chiqishini ta'riflang.*
 3. *Fleytalarning qanday turlarini bilasiz?*

GOBOY

(Ital. — *oboe*, frans. — *hautbois*, nem. — *hoboe*, ingl. — *oboe*)

Goboy XVII asrning birinchi yarmida fransuz soz ustalari tomonidan shalmey cholg'usi asosida yaratilgan. Buning uchun shalmeyning tuzilishiga quyidagi o'zgartishlar kiritilgan: dastlab oddiy qamish naypachoq — dudik o'rniga ikkita alohida g'arov qamishdan qilingan tilchalar bir-biriga biriktirilib, qo'sha tilli-trost yasalgan, nay tanasining ichkarisi va barmoq bilan bosiladigan teshikchalari biroz toraytirilgan. Ushbu o'zgarishlar yuqori registr tovushlar tusini yaxshilagan va intonatsiya sofligini ta'minlagan. Shuningdek, cholg'u tanasi uch qismga bo'linadigan bo'lgan va karnaychasi toraygan konussimon shaklga keltirilgan. Natijada uni sozlash ancha osonlashgan.

Bu yangi cholg'uning barmoq bilan bosiladigan 7 ta teshigi bo'lib, ularning ikkitasi bir-biriga qo'shilgan, pastki teshiklari qo'shaloq klapanlar bilan ta'minlangan. Ular yopilganida pastki asosiy *do* tovushi hosil bo'lgan. Goboyning tovush ko'lami (diapazoni) ikki oktavani tashkil qilgan. Bu davrga kelib, goboyning turli xillari paydo bo'la boshlaydi. Bular: alt, tenor goboylari bo'lib, asosan harbiy orkestrlarda qo'llanilgan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yevropada tanasi konussimon shakldagi goboylar ommalashdi. Ular tanasining ichi biroz torroq bo'lib, tilcha-trosti oldingisiga qaraganda kengaytirib ishlangan. Sadolanishi jihatidan zamonaviy goboyga yaqinroq bo'lgan bu cholg'u fransuz tizimidagi goboyning ibtidosi hisoblanadi. Yevropaning qator davlatlarida keng menzurali goboydan foydalanish davom etib kelgan va keyinchalik ushbu cholg'ular «Nemis goboyi» nomini oldi.

XIX asr boshlarida goboyning tuzilishi biroz takomillashtiriladi. Unda nafas bosimini kuchaytirish (*передувания*)ni osonlashtirish va tovushni oktavaga ko'tarish uchun oktava klapani, keyin *fa-diyez* va pastki *do* klapanlari paydo bo'ldi. Fransuz cholg'u ustalari Anri Bord va Xr.Delyusslar goboy bosqichlari mexikasiga sezilarli o'zgartishlar kiritganliklari uchun fransuz tizimidagi goboy asoschilari hisoblanadilar. Ammo yangi goboy namunalari fransuz cholg'u ustalari aka-uka Sharl va Frederik Tribertlar tomonidan takomillashtirilgan goboy hozirgi namunalariga juda yaqindir.

Zamonaviy goboy 590—610 mm uzunlikdagi Afrika qora yog'ochi yoki tuk deb atalgan daraxt tanasidan konussimon shaklda yasalgan. U uchta: yuqori, o'rta va karnaycha qismlardan tashkil topgan. Goboyning yuqori qismi latun shtift(mil-nil)ga kiygizilgan, g'arov qamishdan yasalgan qo'sha tilli-trost o'rnatilgan. Goboyda 25 ta teshikcha bo'lib, ulardan 22—24 tasi



klapanlar bilan ta'minlangan. Goboyning nemis va fransuz tizimidagi turlari mavjud bo'lib, fransuz goboylari o'z intonatsiyasining sofligi, dinamik ko'lami, tovush hosil qilishining yengilligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, menzurasining biroz torligi, klapan moslamalarining takomillashganligi, tovushining keskin va burundan chiqadigan ohangga o'xshash (manqaroq) tusi bilan farq qiladi. Nemis goboylarining tovushi esa o'zining zichligi, jonli, qizg'in ammo bo'g'iq tusi bilan ajralib turadi. Zamonaviy amaliyotda fransuz tizimidagi goboylar keng qo'llaniladi.

Goboyning asosiy xromatik tovushqatori birinchi oktava *re* dan ikkinchi oktava *do-diyez* tovushigacha bo'lib, ular navbat bilan ochilib boruvchi bosqichlar orqali chalinadi. Ikkinchi oktava *re* dan uchinchi oktava *do-diyez*gacha oktava klapani yordamida yuqoridagidek applikatorada takrorlanadi. Yanada yuqori tovushlar esa murakkab applikatora yordamida hosil qilinadi. Birinchi oktava *re* dan past tovushlar esa qo'shimcha klapanlar yordamida chalinadi. Goboy transpozitsiya qilinmaydigan cholg'ular turiga kiradi va skripka kalitida yoziladi.

Goboy diapazoni va registrlari tasnifi.

Goboyning texnik imkoniyatlari fleyta va klarnetga qaraganda biroz sustroq, *re-major* va *sol-major* tonliklarida nisbatan harakatchan. Alteratsiya belgilari ko'pchilikni tashkil qilgan tonlikdagi osoyishta va mungli kuylar goboy xarakteriga mos va oson chalinadi. Turli sakrashlar, birinchi oktava *re* dan uchinchi oktava *mi-bemol*gacha bo'lgan diapazondagi trellar, tersiya va sof kvarta intervallari oralig'idagi rez (tremolo)lar ham qulay ijro etiladi. Boshqa damli cholg'ular singari goboyga ham o'rta va pastki registrlarda surdina qo'llash mumkin (eng pastki tovush bundan mustasno).

GOBOY TURLARI

Ingiliz shoxchasi (английский рожок)

(ital. — *corno inolose*, frans. — *coranglais*, nem. — *englisches horn*, ingl. — *english horn*)

Ushbu cholg'u nomining kelib chiqishi mutaxassislar orasida turli munozaralar tug'dirib kelgan. Chunki fransuzchadagi iborasi burchak yoki bukilgan, shox — shoxcha ma'nolarini bildiradi. Ammo bu so'z noto'g'ri tarjima qilingani natijasida *angle* — ingliz tarzida shakllangan, degan fikrlar mavjud. Ingiliz shoxchasining kelib chiqishi alt pommer cholg'usiga borib taqaladi. XVII asr o'ratalariga kelib, uning takomillashtirilishi natijasida *lya* sozlanishidagi asosiy goboydan kichik tersiya past sadolanadigan ovchilar goboyi — alt goboy kelib chiqqan. 1720—1730-yillari ushbu goboy tanasining ikkinchi qismi d'amur goboyining pastki qismi bilan almashtirilishi natijasida karnaychasi noksimon shakl kasb etgan. Cholg'uning o'zi esa tirsaksimon yoki o'roqqa o'xshash yarim egik shaklda bo'lgan. Tanasi ikki bo'lakdan tashkil topgan va bir-biriga yelimlangan teri bilan tortib boylangan. 1830-yilga kelib ingliz shoxchasining to'g'ri shakldagi turi yaratilib, uning keyingi takomillashishi goboy cholg'usi bilan birga kechgan.

Zamonaviy ingliz shoxchasi goboyga qaraganda hajmining kattaligi, noksimon karnaychasi, qo'sha tilli-trost kiygiziladigan yarim bukilgan metall naychasi bilan ajralib turadi. Bu cholg'u (*fa* sozlanishidagi) transpozitsiya qilinuvchilar turiga kiradi va skripka kalitida ifodalanib, yozilishiga qaraganda sof kvinta past eshitiladi.

Cholg'u diapazoni.

Ingliz shoxchasining tovushi goboyga qaraganda ancha yumshoq, mungli ifodasi yorqin, registrlaridagi sadolanishi ravon, texnik jihatdan esa biroz sust.

Goboy d'amur — (frans. — *amour* — sevgi, muhabbat, nem. — *liebesoboe*) cholg'usi goboyga nisbatan biroz kattaroq va ingliz shoxchasiga qaraganda kichikroq, ammo unga o'xshashdir. 1720-yili Germaniyada paydo bo'lgan. Bu goboy (*lya* sozlanishida bo'lib) transpozitsiya qilinuvchi cholg'ular turiga kiradi va skripka kalitida ifodalanib, yozilishiga qaraganda kichik tersiya past sadolanadi.

Uning diapazoni.

D'Amur goboyining tovushi ingliz shoxchasinikiga o'xshash bo'lib, yanada nozikroq, lekin mungi kamroq va uncha yorqin bo'lmagan sadolanishga ega. Ammo tovush tusi jihatidan goboydan farq qiladi. Bu cholg'uni ko'pincha I.S.Bax, keyinchalik K.Debyussi, R.Shtraus, M.Ravel, S.Vasilenkolar o'z asarlarida qo'llaganlar. Hozirgi davrda d'amur goboyidan deyarli foydalanilmaydi.

Gekkelfon (bariton goboyi) cholg'usi 1904-yili nemis cholg'u ustasi V.Gekkel tomonidan yaratilgan. Ko'rinishi jihatidan goboyga o'xshash bo'lib, oktava past sado beradi. Uning menzurasi keng va sharsimon karnaychaga ega. Qo'sh tilli-trostli metallardan yasalgan uzun to'g'ri naychaga kiygiziladi. Gekkelfon kuychan ifodali tovushga ega. Orkestrda juda kam foydalaniladi. R.Shtraus o'zining «Salomeya» va «Elektra» operalarida ushbu cholg'uni qo'llagan.

- Topshiriq.**
1. Goboyning tarixiy kelib chiqishini ayting.
 2. Goboyning qanday turlarini bilasiz?
 3. Ularga ta'rif bering.

KLARNET


(ital. — *clarinetto*, frans. — *clarinette*, nem. — *klarinette*, ingl. — *clarinet*)

Ushbu cholg'uning nomi lotincha *clarus* — aniq (tovush) atamasidan kelib chiqqan. Uning juda qadimiy ibtidolari bosh tomonidan tilcha kesib ochilgan silindrik shakldagi naychalar bo'lib, Yevropada *italiya laundeu (launtdda)si*, *ispan albogeyyu (alboguea)si*, *ingliz. pibgorni (pibgorn)*, *kareliya lirasi*, *latish ganurasi va litva birbinalari* hisoblanadi. Ammo klarnetning bevosita ibtidosi O'rta asrlarda Markaziy Yevropada, ayniqsa, Fransiyada keng tarqalgan *shalumo (chalumeau)* cholg'usidir. U to'g'ri silindrik shakldagi yog'ochdan yasalgan bo'lib, 9 ta ijro teshigi mavjud (ba'zilarining teshigi 2 yoki 3 tadan oshmagan, uning boshqacha ko'rinishidagi *evnika* deyiladigan turida esa umuman ijro teshigi bo'lmagan). XVIII asrning ikkinchi yarmida bu cholg'u *sampon (zampogne)* nomini olgan. U karnaychasiz yettita ijro teshikli to'g'ri silindrik shaklda bo'lib, yuqori qismidagi yumaloq qutichasida trost joylashtirilgan. Diapazoni esa (kichik oktava *fa* dan birinchi oktava *fa* gacha) bir oktavani tashkil qilgan. Shalumo cholg'usini klarnetga aylantirilishi 1700-yilda nemis cholg'ushunos ustasi Iogan Kristofor Denner tomonidan amalga oshirilgan. Avvalo, Denner ichkarisiga trost berkitilgan qutichani olib tashlab, trostni ijrochi labi bilan boshqariladigan holatga keltirgan. Qamishdan kesilgan tilchani maxsus yasaladigan alohida tilcha — trost bilan almashtirgan va munshtukka bog'lanadigan qilgan. Natijada tovush hosil qilish osonlashgan va tovush intonatsiyasi bevosita ijrochi labi bilan boshqarilgan. Denner shalumoning cheklangan diapazonini kengaytirish uchun ijro teshiklari tizimini tartibga solgan va cholg'uning akustik o'ziga xosligini o'zgartirgan. Natijada birinchi bo'lib klarnet cholg'usining uncha ravon bo'lmagan ijro teshiklari vujudga kelgan. Keyinchalik ochilgan 10ta ijro teshiklari yordamida kichik oktava *fa*, *sol*, *lya*, *si* tovushlari, birinchi oktava *do*, *re*, *mi*, *fa*, *sol* tovushlarining hosil qilinishi mumkin bo'lgan. Klarnetning yuqori qismiga Denner birinchi oktava *lya* va *si* tovushlari uchun ikkita ochqich ixtiro qilgan. Bunda nafas bosimini kuchaytirish (передувания) bilan *si* klapani ochilsa, tovush duodetsimaga ko'tarilgan va cholg'u diapazoni kichik oktava *fa* dan ikkinchi oktava *lya* — *si* gacha kengaygan. Shunday qilib ikki klapanli texnik harakatchan (ayniqsa yuqori registrdan) klarnet kelib chiqqan. Uning pastki registri kuychan so'lim tusda, yuqorisi esa keskin va o'tkir jaranglagan.

XVIII asr mobaynida klarnetning takomili izchil davom etgan va 70-yillarga kelib, o'z mumtoz shakliga yetgan. I.X.Dennerning o'g'li I.Denner klarnetga oktava yoki duodetsima klapanini ixtiro qilgan va cholg'uni biroz uzaytirib, hozirgi klarnetlardagidek kichik oktava *mi* tovushini olish imkoniyatini yaratgan. Keyinchalik Barunshveyglik usta B.Frits va Parijlik usta K.Lefer biroz o'zgartishlar kiritishgan.

Bu davrda klarnetlar turli hajm va sozlanishda yasalgan va doimo tana qismlarining o'lchamlariga rioya qilingan. Ya'ni klarnet munshtuki kichik va tor kanalli uzunchoq shaklda

bo'lgan. Trostlar g'arov qamish, sosna, archa va hatto baliq suyagidan ham tayyorlangan. Besh, olti klapanli klarnetlarning klassik sozlanishi *si-bemol, do, lya* va kichik oktava *fa* bo'lgan. Ushbu klarnetlarning trostlari ustki tomonga o'rnatilgan bo'lib, ijrochining yuqori labi bilan (qo'shnayga o'xshab) boshqarilgan. Keyinchalik nemis ijrochilari munshtukni burab, pastga qaratganlar va pastki lab bilan boshqariladigan qilganlar. Bu cholg'ular (ayniqsa yuqori registrlarda) keng ifoda imkoniyatiga ega bo'lib, tembri juda kuychan, dinamik jihatidan turfa xil va harakatchanlik tarafidan ajralib turgan. Mazkur klarnetlarni Gaydn, Motsart va Betxoven o'z asarlarida qo'llaganlar.



XIX asr boshlariga kelib klarnetdagi klapanlar soni o'n uchtaga yetdi. Shuningdek, ular barmoqlar uchun yanada qulayroq holga keltirildi va intonatsiya sofligini ta'minlash uchun ijro teshikchalari aniq o'lchamlarda teshiladigan bo'ldi. Bu klarnetlarda turli tonlikda chalish mumkin bo'lganligidan, sozandalar orkestr amaliyotida turli sozlanishdagi klarnetlardan foydalanishga hojat qolmadi.

XIX asr o'rtalariga kelib klarnetlar T.Byom tomonidan ixtiro qilingan klapanlar tizimining yangi konstruksiyasi bilan ta'minlandi. Ushbu tizimdagi klarnetning pastki qismi biroz uzunroq va oxiriga qarab kengaytirilgan. Yuqori qismi biroz qisqaroq, bakchasi uzunroq, munshtugi kengroq va uning yuqori kesimi uzaytirilgan. Trost o'rnatiladigan maydonchasi esa kengaytirib ishlangan. Pastki qismida chap va o'ng qo'l jimjiloqlari bilan bosish va kichik oktava *mi, fa, fa-diyez* hamda duodetsima klapani yordamida birinchi oktava *si*, ikkinchi oktava *do, do-diyez* tovushlarini hosil qilish uchun bir qancha klapanlar bilan ta'minlangan. Ammo Germaniyada ushbu tizimdagi klarnet ommalashmadi va ixtiro patentini Fransiya sotib oldi. Natijada ushbu tizim fransuz tizimi nomi bilan keng tarqala boshladi.

Bu klarnetning menzurasi silindrik tarzda karnaychasi tomonga keng konussimon shaklda o'yib ishlangan. Munshtukining kanali ancha chuqurlashtirilganligidan boshqacha trostga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ya'ni oldingisiga nisbatan trostning tilchasi uzunroq va kengroq, tarangligi sal bo'shroq qilib ishlov berildi.

Eski nemis tizimidagi klarnetni takomillashtirish esa davom etdi. Uni takomillashtirishda nafaqat nemis sozandalari, balki Moskva konservatoriyasining professori S.V.Rozanov ham 1905-yili kichik oktava *si, do-diyez* (duodetsima klapani yordamida ikkinchi oktava *fa-diyez, sol-diyez*) trel moslamalarini o'rnatdi. Shuningdek, o'ng qo'l jimjilog'ida kichik oktava *fa-diyez*, birinchi oktava *do-diyez* (duodetsima klapani yordamida ikkinchi oktava *do-diyez, sol-diyez*) tovushlarini chiqarish, legato va tremolo hosil qilish uchun qulay klapan o'rnatdi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan klapanlarining qulayligi va sof intonatsiyasi bilan fransuz tizimidagi klarnetlar nemis klarnetlarini asta-sekin siqib chiqara boshladi. Hozirgi davrda ham nemis klarneti tizimini yaxshilash ustida izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, Germaniyada bir necha yil oldin, «fransuz tizimida»gi klapanlarni qo'llagan holda tanasi va munshtugi «nemis tizimida» ishlangan klarnet yaratildi. Natijada go'zal va to'liq tovushli, sof intonatsiyali klarnet paydo bo'ldi. Uning kamchiligi umumiy tanasining uzayishi hisobiga og'irligining ortganligidadir.

Zamonaviy klarnet 590—680 mm uzunlikdagi (grenadil, eman yoki plastmassa) yog'ochdan silindrik shaklda yasaladi. Klarnet besh qism: munshtuk (trosti bilan), bakcha, yuqori qism (tirsak), pastki qism (tirsak) va karnaychadan tashkil topgan. Uning tovushqatori xromatik bo'lib, kichik oktava *mi* dan birinchi oktava *si-bemol*gacha navbat bilan ochiladigan ijro teshiklari yordamida chalinadi. Birinchi oktava *si* dan uchunchi oktava *do* gacha o'sha applikatorada duodetsima klapani yordamida hosil qilinadi. Yuqori tovushlar murakkab applikatora yordamida chiqariladi. Klarnet transpozitsiya qilinadigan cholg'ular turiga kiradi va skripka kalitida ifodalanadi. *Si-bemol* sozidagisi yozilishiga qaraganda katta sekunda, *lya* sozidagisi — kichik tersiya past eshitiladi.

Diapazon va registrlarining tasnifi.

Barcha damli cholg'ular ichida klarnet turfa xil ifoda vositalariga ega. U nafaqat texnik mahorati va legato chalish imkoniyati jihatidan fleytadan qolishmaydi, balki har qanday dinamik

kuchlanishda diatonik va xromatik gammalarni tez sur'atda chalishda undanda ilg'orroqdir. Stakkato chalishda esa fleyta ustunroq. Uchinchi oktava *fa* dan yuqori tovushlardan tashqari qariyb barchasida trel hosil qilish mumkin. Tremolo duodetsima klapani yordamida chalinadigan tovushlarda ancha qiyinchilik tug'diradi. Qolganlarida yengil ijro qilinadi.

KLARNET TURLARI

Kichik klarnet (ital. — *clarinetto piccolo*, frans. — *petite clarinette*, nem. — *kleine klarinete*, ingl. — *high clarinet*) asosiy cholg'udan o'zining kichik hajmi bilan ajralib turadi. U XVIII asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan va klarnet bilan birgalikda takomillashgan. Kichik klarnet o'zining kuchli tovushi bilan harbiy damli cholg'ular orkestrida keng qo'llanilgan. Uning applikatorasi klarnet bilan bir xilda bo'lib, transpozitsiya qilinuvchi cholg'ular qatoriga kiradi va skripka kalitida ifodalanadi. *Mi-bemol* sozidagisi yozilishiga qaraganda kichik tersiya, *re* sozidagisi esa katta sekunda yuqori eshitiladi. Diapazoni va registrlarining tasnifi.

Texnik imkoniyatlari klarnetniki bilan bir xil. *Mi-bemol* sozidagi klarnet damli cholg'ular orkestrida kam ishlatilsa, *re* sozidagisidan simfonik orkestrda uncha ko'p foydalanilmaydi.

Bassetgorn (ital. — *corno di bassetto*, frans. — *cor o'fe basset*, nem. — *alt klarinette*, *bassetthorn*, ingl. — *high clarinet*) XVIII asrda keng qo'llanilgani alt klarnetdir. Ushbu cholg'uning egilgan shakldagi karnaychasi misdan ishlangan. XVIII asr oxirida presburglik T.Lyuts va venalik aka-uka Shtadlerlar bassetgornni ikki: yuqori va pastki qismga ajraladigan qilib yasaganlar. XIX asrga kelib to'g'ri nayli, ikki qismli, karnaychasi metallardan yuqoriga qayrilib ishlangan turi paydo bo'ldi.

Zamonaviy bassetgorn 750—900 mm uzunlikdagi yog'ochdan yasalgan cholg'u bo'lib, uning bosh qismiga metallardan qayrilib ishlangan naycha o'rnatilgan. Naychaga qush tumshug'iga o'xshagan munshtuk trosti bilan kiygiziladi.

Bassetgorn applikatorasi klarnetniki bilan o'xshash. Ammo xromatik tovushqatorni pastga uzaytirish uchun o'rnatilgan to'rtta qo'shimcha klapanlari mavjudligi bilan farqlanadi. U transpozitsiya qilinuvchi cholg'ular turiga mansub bo'lib, skripka kalitida ifodalanadi va *fa* sozidagisi yozilishiga qaraganda kvinta, *mi-bemol* sozidagisi esa katta seksta past eshitiladi. Uning diapazoni kichik oktava *do* dan uchinchi oktava *fa* gacha. O'rta va past registrlari yoqimli mayin tusda, yuqori registrining tovushlari unchalik to'la bo'lmagan holda ikkinchi oktava *sol* tovushidan balanddagilari zo'riqqanroq holda jaranglaydi. Hozirgi davrda bu cholg'udan deyarli foydalanilmaydi.

Bas klarnet (ital. — *clarinetto basso*, frans. — *clarinette basse*, nem. — *bassklarinet*, ingl. — *bassclarinet*) o'zining tuzilishi jihatidan bassetgorniga o'xshash bo'lib, 1772-yili parijlik cholg'u ustasi J.Lot tomonidan ixtiro qilingan. Bir yildan keyin Drezdenlik usta G.Grenzer uning yangi namunasini yaratdi. Shu davrdan e'tiboran bas klarnet musiqiy amaliyotda qo'llanila boshladi. Uning *si-bemol* sozidagisi asosiy klarnetdan ikki barobar uzun, menzurasi kengroq va oktava past sadolanadi. *Lya* va *do* sozidagi bas klarnetlardan amaliyotda juda kam foydalanilgan. Dastlab yasalgan bas klarnetlar fagot shakliga o'xshash bo'lib, XIX asr o'rtalarida to'g'ri naychali, 19 ta ijro teshikli hozirgi shakldagi bas klarnet paydo bo'ladi. Uning applikatorasi bassetgornniki bilan bir xilda.

Bas klarnet transpozitsiya qilinuvchi cholg'ular turiga kiradi va skripka kalitida (*si-bemol* sozidagisi yozilishiga qaraganda nona past eshitiladi) va ba'zan bas kalitida (yozilishiga qaraganda katta sekunda past eshitiladi) ifodalanadi. Diapazoni va registrlarining tasnifi (yozilishi b o'yicha nota namunasi).

Bas klarnet orkestr amaliyotida o'zining tembr xususiyati va asosiy cholg'uning diapazonini kengaytirish maqsadida ko'pincha pastki registrlarda qo'llaniladi. Uning texnik imkoniyati klarnetnikiga nisbatan sustroq. Hozirgi davrda asosan simfonik va katta tarkibli damli cholg'ular orkestrlarida qo'llaniladi.

- Topshiriq.** 1. Klarnetning qanday turlarini bilasiz?
2. Klarnetlar oilasini ta'riflang.

FAGOT

(ital. — *fagotto*, frans. — *basson*, nem. — *fagott*, ingl. — *bassoon*)

Ushbu cholg'uning bevosita ibtidosi qadimgi bas bombarddir. U yog'ochdan to'g'ri silindrik shaklda yasalgan, kengroq menzurali, voronkasimon karnaychali, diatonik tovushqatorli, qo'sh tilli-trostli, ikki oktava diapazondagi cholg'u bo'lib, 7 ta ijro teshiklari bilan ta'minlangan. Bombard o'sha paytda Germaniyada keng tarqalgan. XVI asrning ikkinchi choragida bombard bir qancha o'zgarishlarga uchradi. Ulardan birinchisi lotincha U harfi shaklida yasala boshladi va bu ijrochilarga chalish uchun qulaylik tug'dirdi. Shuningdek, cholg'u menzurasi sal toraytirildi, trosti esa kosasimon qutichadan xalos etilib, ijrochi labi bilan boshqariladigan bo'ldi. Bularning natijasida bombardning tovushi mayin va nozik ohang kasb etdi. Shu sababli uning nomini bombard emas, dolchian, dolsian, dolsin (ital. *dolce* — nozik, shirin) deb atala boshlandi. Bu cholg'u fagotning barcha xususiyatlarini ifoda etar edi.

XVI—XVIII asrlarda fagotlar oilasi kelib chiqdi va ular: kontrfagot, qo'shfagot, xoristfagot (bu zamonaviy fagotga juda yaqin bo'lgan), diskant fagot va oktav fagotlardan tashkil topgan. Ushbu oila ichidan asosiy fagotdan tashqari kontrfagotgina keng tarqalgan.


XVII asr oxiriga kelib fagot to'rt qismga ajraladigan bo'laklardan tashkil topib, uchta klapan (*si-bemol*, *re* va *fa*) bilan ta'minlangan. Diapazoni esa (kontroktava *si-bemoldan* birinchi oktava *fa-diyezgacha*) ikki yarim oktavani tashkil qilgan. Keyinchalik to'rtinchi *lya-bemol* va XVIII asr oxirlarida *mi-bemol* klapanlari paydo bo'lgan. Shu davrga kelib kichik bo'lagida oktava klapanlari o'rnatilgan va cholg'uning yuqori registri ancha (4 ta oktava, klapanli fagotda ikkinchi oktava *fa* gacha) kengaytirilgan.

XIX asr boshlariga kelib, ijrochilik amaliyotida fransuz tizimidagi fagotlar yetakchilik qila boshlaydi. Mashhur fransuz cholg'u ustasi Kichik Savari 11 klapanli fagotni ixtiro qiladi. Bu cholg'u nozik tovush tusiga ega bo'lib, burundan chiqadigan quruq tovushga o'xshash ohang kasb etgan va intonatsiyasi sofligi bilan ajralib turgan. Uning konussimon shakli dinamik kuchini biroz cheklagan. XIX asr o'rtalarida taniqli fransuz ustalari A.Byuffe va F.Triyebertlar yasagan fransuz fagotlari ommalashgan. Ushbu cholg'ularga 16—19 ta ijro klapanlari o'rnatilgan. 1850-yili F.Triyebert fagotga Byom tizimini o'rnatib, yangi cholg'u yasashga uringan. Ammo bu fagot o'z tuzilishining murakkabligi va tovush tembrining bo'shligi tufayli ommalashmagan. Byom tizimini qo'llash uchun bo'lgan boshqa urinishlar ham bekor ketgan.

1825-yildan boshlab nissalik kapelmeyster va kamer-sozanda Kari Almenrgder (1786—1843) fagotni takomillashtirish ustida qunt bilan izlanish olib bordi. U Betxoven davridagi eski klassik fagot bosqichlari tizimiga o'zgartish kiritib, bir qancha ijro teshiklari va klapanlar qo'shdi. Natijada fagotning nemis tizimidagi yangi takomillashtirilgan turi paydo bo'ldi va uni mashhur «Gekkel» firmasi ishlab chiqara boshladi. Ushbu cholg'ular o'zining keng konussimon shakldaligi va takomillashgan klapanlar tizimi bilan ajralib turadi. Fagotning bu turini hozirgi davrda ham qator Yevropa firmalari ishlab chiqarmoqda. «Gekkel» firmasi namunalari asosida Peterburg damli cholg'ular zavodi ham fagotlar ishlab chiqarishga kirishgan.

Fransuz fagotlari hozirgi davrda Fransiya, Ispaniya va Italiyada keng tarqalgan bo'lib, ularni Parijdagi «Byuffe-kramlon» firmasi tayyorlaydi.

Zamonaviy fagot ikki yarim metr keladigan klon yog'ochidan, ba'zan plastmassadan (avvallari buk, sammit va yavor degan daraxt yog'ochlaridan tayyorlangan) kichik karnaychaga o'xshab kengaygan og'izli, bosh tomoniga o'rnatiladigan «es» metallan lotincha «S» shakliga o'xshatib metallan yasalgan cholg'u. Uning ikkita yog'och quvurlari bir-biriga lotincha U shaklida birlashtirilgan. Fagotda «es» naychasiga kiygiziladigan qo'sha tilli-trost or-



qali tovush hosil qilinadi. «Es»ga oʻrnatilgan klapan esa yuqori registrdagi tovushlarning oson chalinishida yordam beradi. Fagot 25—30 ijro teshiklaridan iborat boʻlib, ularning koʻpchiligi klapanlar bilan taʼminlangan va qolganlari barmoqlar bilan bosiladi. Ularning navbat bilan ochilishi natijasida kontroktava *si-bemol*dan kichik oktava *fa* tovushigacha xromatik tovushqator hosil boʻladi. Kichik oktava *fa-diyez*dan birinchi oktava *re* gacha nafas bosimini kuchaytirish (передувания) orqali chalinadi va kichik oktava *fa-diyez* tovushlarini chalayotganda *fa* tovushining teshigi yarim ochiq holda qoldiriladi. Kichik oktava *lya*, *si-bemol*, *si* va birinchi oktava *do* tovushlari oktava klapani yordamida chalinadi. Baʼzi professional ijrochilar esa uning yordamisiz ham chala oladilar. Birinchi oktava *re* dan baland boʻlgan tovushlar murakkab applikator yordamida hosil qilinadi.

Fagot transpozitsiya qilinmaydigan cholgʻular turiga kiradi va bas, tenor, baʼzan (eng yuqori tovushlar) skripka kalitlarida ifodalanadi. Diapazoni va registrlarining tasnifi.

Fagot texnik mahorati jihatidan klarnet va goboyga qaraganda sal sustroq. Ayniqsa, tez surʼatdagi passaj va bir qancha alteratsiya belgisi bor tonlikdagi trellarni chalishda namoyon boʻladi. Pastki registrda fagot kam harakatchan. Stakkato chalishda esa oʻtkir va burro boʻlib, oktava va undan katta oraliqdagi intervallarga sakrashlarni ham bemalol chalishi mumkin. Yuqori va pastki registrdagi stakkato mahorati oʻrta registrga qaraganda sal sust. Zamonaviy ijrochilar tez surʼatda chalganlarida tremolo oʻrniga ham qoʻsh atakani keng qoʻllaydilar (rus fagotchi-ixtirochi V.Bubnovich va rumin G.Kuruchyanular tomonidan trel moslamalari birmuncha osonlashtirilganligiga qaramasdan), buning sababi tremolo qiyinchilik bilan chalinadi va uncha burro jaranglamaydi. Trel esa barcha tovushlarda birdek emas. Chalib boʻlmaydigan trellar. Fagotda surdina qoʻllashni dastlab rus fagotchisi Yu.F.Neklyudov amalga oshirgan. Surdinadan asosan pastki registrda *pp* hosil qilish uchun foydalaniladi. Eng yuqori tovushlarga surdinaning taʼsiri boʻlmaydi. Eng pastki tovush esa surdina qoʻysa chalinmaydi.

FAGOT TURLARI

Kontrfagot (ital. — *contrfagotto*, frans. — *conterbetsson*, nem. — *kontrafagott*, ingl. — *kontrafagotto*, *douhle-hasson*)

Kontrfagot fagotga nisbatan ikki baravar katta. Tuzilishi va applikator jihatidan uncha farq qilmaydi. Ammo baʼzi oʻzgarishlari («es» klapanining yoʻqligi) mavjud. Kontrfagot bas kalitida ifodalanadi va yozilishiga qaraganda bir oktava past eshitiladi. Uning pastki kuchli quyuq tovushli registri (kontroktava *si-bemol* dan katta oktava *si-bemol* gacha) muhim hisoblanadi. Yuqori registri unchalik jozibador emas. Aksincha fagotda ular toʻlaroq jaranglaydi. Texnik imkoniyati jihatidan sustroq.

Sarryusfon (ital. — *sarrusofono*, frans. — *sarrussophone*, nem. — *sarrusophon*,) 1856-yili fransuz harbiy kapelmeysteri V.Sarryus tomonidan yaratilgan. U latundan yasalgan keng menzurali, konussimon egilgan shakldagi, karnay ogʻizli, 18 klapanli cholgʻu. Sarryusfonda qoʻsha tilli keng trost metallardan yasalgan tor naychaga kiygizilib tovush hosil qilinadi. Cholgʻu texnik jihatdan harakatchan, pastki registrda quyuq va toʻla sadolanadi. Yuqorida esa beqaror va sust jaranglaydi. Tovush tusi manqa va shangʻiroq.

1863-yili fransuz cholgʻu ustasi P.L.Gotro sarryusfonni takomillashtiradi va bu cholgʻularning butun bir oilasini yaratdi. Ular oltita turli cholgʻudan tashkil topgan va tarkibida kontrabasdan tortib sopranogacha ovoz hajmini toʻldiruvchi cholgʻular boʻlgan. Ularning barchasi transpozitsiyalanuvchi boʻlib (kontrabasdan tashqari), asosan skripka kalitida ifodalanadi. Eshitilishi boʻyicha *si-bemol* sozidagi soprano sarryusfoni — kichik oktava *lya-bemol*dan uchinchi oktava *re-bemol*gacha, *mi-bemol* sozidagi kontralto — kichik oktava *re-bemol*dan ikkinchi oktava *sol-bemol*gacha, *si-bemol* sozidagi tenor — katta oktava *lya-bemol*dan ikkinchi oktava *re-bemol*gacha, *si-bemol* sozidagi bas — kontroktava *lya-bemol*dan birinchi oktava *re-bemol*gacha, *mi-bemol* sozidagi kontrabas — kontroktava *re-bemol*dan kichik oktava *sol-bemol*gacha tovush koʻlamini tashkil qilgan. Koʻrinib turganidak, sarryusfonlarning umumiy

diapazoni (yozilishi bo'yicha kichik oktava *si-bemol*dan uchinchi oktava *mi-bemol*gacha) uch oktava hajmi o'z ichiga oladi.

Sarryusfonlar asosan damli cholg'ular orkestrida qo'llanilgan. Biroq, kontrabas sarryusfondan fransuz impressionist kompozitorlari simfonik orkestrda (kontrfagot o'rnida) foydalanishgan. Hozirgi davrda bu cholg'ular qo'llanilishdan chiqqan.

- Topshiriq.** 1. Fagot cholg'usining tarixiy kelib chiqishini ta'riflang.
2. Fagot turlarini izohlang.

SAKSOFON

(ital. — *saxofono*, frans. — *saxophone*, nem. — *saxophon*, ingl. — *saxophone*)


Saksofonlar oilasi sopraninodan tortib subkontrabasgacha bo'lgan turli tessitradagi cholg'ular guruhini tashkil qiladi. U metallardan «S» shaklda bukib (soprano va sopraninosi to'g'ri) yasalgan, karnaychali og'zi tomonga qarab konussimon kengayib borgan cholg'u.

Boshqa damli cholg'ulardan farqli o'laroq, saksofonlarning qadimgi ibtidosi bo'lmagan. U XIX asrning 40-yillarida belgiyalik cholg'u ustasi Adolf Saks tomonidan ixtiro qilingan. Saksofonni takomillashtirish ishini A.Saks Parijda davom ettirdi va shu cholg'uning birinchi ijrochisi hamda Parij konservatoriyasidagi saksofon sinfining dastlabki o'qituvchisi hisoblanadi.

Ushbu cholg'uning tuzilishi hozirgi davrgacha o'zgarishsiz saqlanib qolgan. Faqat klapanlariga ba'zi o'zgartishlar kiritilgan. 1887-yili pastki *si-bemol* klapani o'rnatilgan va bariton saksofoniga pastki *lya* klapani qo'shilgan. Uning og'ir mis tanasi maxsus yengil metall qotishma bilan almashtirilgan.

Saksofonning munshuk va trosti klarnetlarniki bilan o'xshash. Applikaturasi esa goboynikiga to'g'ri keladi. Boshqa tilli-trostli cholg'ularga qaraganda saksofonning quvuri ancha kengligidan uning tovushi kuchli va to'liq jaranglaydi. Sopranino va soprano saksofonlari to'g'ri konussimon quvurdan iborat. Qolganlari esa orqaga qayrilgan, munshuk kiygiziladigan naycha bilan ta'minlangan. Ularning «S» shaklidagi metall tanasi keng diametrli ijro teshiklari toza va kuchli tovush hosil qilishga imkon yaratadi.

Saksofon 24 (bariton va bas 25)ta ijro teshiklariga ega bo'lib, ular klapanlar bilan ta'minlangan va shulardan ikkitasi oktava klapanlaridir. Xromatik tovushqatorning dastlabki



16 ta tovushi klapanlarni pastki *si-bemol*dan boshlab navbat bilan ochib borilishi natijasida hosil qilinadi. Qolgan 12 ta tovush (ikkinchi oktava *re* dan uchinchi oktava *do-diyez* gacha) pastki asosiy tonlarning ikkinchi obertonlari hisoblanadi va o'sha applikatorada (ikkinchi oktava *lya* gacha) birinchi oktava klapanini ochgan holda chalinadi. Ikkinchi oktava *lya* dan yuqori tovushlar munshtuk kiygiziladigan naychaga o'rnatilgan ikkinchi oktava klapani yordamida hosil qilinadi. Uchinchi oktava *do-diyez* (yozilishi bo'yicha) va undan yuqori tovushlar qo'shimcha klapanlar orqali chalinadi. Uchinchi oktava *fa* (yozilishi bo'yicha) saksofonlar uchun eng yuqori tovush hisoblanadi. Ammo murakkab applikatorani qo'llash natijasida undan ham yuqori, ya'ni to'rtinchi oktava *do* tovushini ham hosil qilish mumkin. Soprano, bas, kontrabas va subkontrabas saksofonlari uchun eng oxirgi tovush uchinchi oktava *mi-bemol* tovushidir.

Saksofonlar oilasi sakkiz turdan tashkil topgan bo'lib, sopranino *mi-bemol* sozida, soprano *si-bemol* sozida, alt *mi-bemol*, tenor *si-bemol*, bariton *mi-bemol*, bas *si-bemol*, kontrabas *mi-bemol*, subkontrabas *si-bemol* sozlanishidadir. Ularning barchasi transpozitsiyalanuvchi cholg'ular turiga kiradi va bir xil applikatoraga ega. Partiyalari esa skripka kalitida ifodalanadi. Saksofonlarning to'liq diapazoni va registrlari tasnifi.

Saksofon juda harakatchan cholg'u bo'lib, unda bitta bemolli va to'rtta diyozli tonlikdagi kuy va mashqlarni chalish o'ng'ay. U dinamik jihatdan ham qulay va o'rtacha kuchlanishdagi tovush chalinganda birdaniga uchta klarnet tovushiga to'g'ri keladi. Shuningdek, kompozitor G. Berlioz ta'biri bilan aytganda: «Hech bir cholg'u pianissimo chalganda jimlik chegarasiga saksofonchalik yaqin bora olmaydi», deganida haq edi. Saksofonda qariyb barcha trellarni ijro qilish mumkin. Murakkablari quyidagilari hisoblanadi.

Yuqoriga tomon glissando chalish oson, aksincha pastga esa glissando murakkab va juda kam qo'llaniladi. Ijro jarayonida tovush hosil qilishning maxsus usullari: *subtone* — bo'g'iq tovush, *deadtone* — ifodasiz, jonsiz, o'lik tovush, *slabtone* — qisqa, shaqillashga o'xshash keskin tovush, *vibrato* — nolasimon tovush va h.k. Tovush kuchini pasaytirish va tembr tusini boyitish uchun surdina ham qo'llaniladi.

Saksofonlar oilasi ichida ko'proq tarqalganlari alt va tenor cholg'ularidir. O'zining chiroyli tembri va texnik imkoniyatlari tufayli ulardan yakka holda (ayniqsa saksofon alt) hamda turli orkestr va ansambllar tarkibida qo'llaniladi.

- Topshiriq.** 1. Saksofon cholg'usining tarixiy kelib chiqishini ta'riflang.
2. Saksofonlarning qanday turlarini bilasiz?

MISDAN YASALGAN CHOLG'ULAR

VALTORNA

(ital. — *corno*, frans. — *cor*, nem. — *waldhorn*, *horn*, ingl. — *french horn*)

Valtornaning ibtidosi ovchilar burg'usi-shoxi (nemislarda o'rmon burg'usi-shoxi) hisoblanadi. U XVII asr oxirlarida Fransiyada silindrik quvuri pastga qarab konussimon kengayib borib, og'zi keng karnay bilan yakunlanadigan shaklda takomillashtirilgan. Valtornada 16—17 ta tabiiy, chiroyli, mayin tovushlar hosil qilish mumkin bo'lgan. Bu cholg'uning asosi shunday tarzda kelib chiqqan. 1681-yilga kelib u Chexiya va Germaniyada paydo bo'ladi. Valtornaning cheklangan tovushqatori turli hajmdagilarining yaratilishini taqozo qildi. XVIII asr boshlarida orkestrlarda quyidagi tizimdagi valtornalardan foydalanila boshlandi: *si-bemol* (bas valtorna), *do*, *re*, *mi-bemol*, *mi*, *fa*, *sol*, *lya*, *si-bemol* (alt) valtornalar. Past sozlanishdagi valtornalar hajm jihatidan katta bo'lishiga qaramasdan kuchsiz jaranglar edi. Yuqori sozlanishdagilari esa aksincha, yoqimsiz va keskin sadolanishi bilan ajralib turardi. *Mi-bemol*, *mi*, *fa*, *sol* sozidagilari o'zining ifodali tovushi bilan farqlanar edi.

Valtornaning takomillashtirilishidagi bosh yo'nalish uning xromatik tovushqatorlisini yaratishdan iborat bo'lib, 1750-yili drezdenlik valtornachi A.I.Xampel cholg'u karnayiga qo'lini

tiqib, yopiq tovush hosil qilish taklifini kiritadi. Bunda ijrochi o'ng qo'l barmoqlarini jipslashtirgan holda cholg'u karnayiga turli chuqurlikda kiritib, yarim va bir ton oraliqdagi tabiiy tovushlar hosil qilinadi. Bunday usul hozirgi davrda ham tovush tusini o'zgartirishda ishlatiladi. Bu usulning nemischa iborasi *stopfen* — *yopish*, inglizchasi *stopping* — *to'xtatish* degan ma'nolarni bildiradi. Uning ijro jarayonida qo'llanilishi cholg'u asbobini sozanda holatiga nisbatan biroz o'zgarishini, ya'ni valturna o'ng tomon pastga qayirib ushlanadi va tovush tusi ancha yumshoq eshitaladi.

Bu davrga kelib, turli uzunlikdagi kronalarni qo'llash ham boshlangan. Munshtuk bilan cholg'u naychasi o'rtasiga turli xil uzunlikdagi halqasimon kronalar almashtirib o'rnatilgan holda chalingan. Buning natijasida tabiiy sozlanishdagi valturnalar soni 16 taga ko'paygan. Halqasimon kronalarni ijro jarayonida almashtirish yordamida esa valturnani turli sozlanishga moslash imkoniyati tug'ilgan. Keyinchalik Xampel kronalar o'rniga turli hajmdagi yoysimon shaklda yasalgan invensiya-trubkalarini ixtiro qilgan. Bunday ixtiro va usullar xromatik valturnani yaratish yo'lidagi muhim bosqichlardan hisoblanadi.

1760-yili Peterburg saroy orkestri valturnachisi F. Kelbel ovchilar signal shoxchasiga klapanlar o'rnatib, xromatik valturna yaratadi. Ammo bu cholg'u texnik jihatdan ustun bo'lgani bilan tabiiy tovush sifati va intonatsiyasining g'alizligi sababli o'z takomiliga yetmagan edi.


1814-yili nemis cholg'u ustalari F. Blyummel va G. Shtellsellar tomonidan ikki ventilli valturna yaratiladi. Ventil moslamalari cholg'u tovushqatorini ancha boyitdi. Lekin to'liq xromatik tovushqator hosil qilish baribir o'z yechimini topmaydi. XIX asrning 20-yillari oxirida uchta ventilli valturnaning kashf qilinishi bu cholg'uda to'liq xromatik tovushqator hosil qilish imkoniyatini yaratdi. Ventilli valturnaning tabiiysidan farqi, intonatsiyasining toza emasligi va tovush sifatining pastligida edi. Shuning uchun ham kompozitorlar simfonik orkestrda xromatik valturnaga ehtiyotlik bilan yondashar edilar. Vaqt o'tishi va xromatik valturnaning yanada takomillashtirilishi natijasida asta-sekinlik bilan u tabiiy valturnani siqib chiqara boshladi.

XIX asr oxiriga kelib, turli sozlanishdagi xromatik valturnalardan *fa* sozlanishdagi o'rtacha cholg'u ajralib chiqdi. U damli cholg'ular orkestri tarkibiga kashf qilinishi bilanoq kirib kelgan. Keyinchalik *mi-bemol* sozidagi valturna qo'llanila boshlaydi va bora-bora *fa* sozidagi valturnani siqib chiqaradi.

Zamonaviy valturna silindrik quvurining uzunligi 3,74 metr bo'lib, u aylana shaklida ikki marta o'ralgan va juda keng karnaychasiga ulanadigan joyda konussimon ravishda kengaygan. Valturnaning munshtugi tor, chuqur va voronkasimon shaklga ega. Boshqa damli cholg'ulardan farqli o'laroq, valturna chap qo'lda chalinadi. O'ng qo'l cholg'uni ushlab turadi va yopiq tovushlarni chiqarish uchun ishlatiladi.

Fa sozidagi valturna transpozitsiya qilinuvchilar turiga kiradi va skripka kalitida ifodalanadi. Yozilishiga qaraganda kvinta past eshitaladi. Uning pastki registri tovushlari bas kalitida ham ifodalanishi mumkin. Bu holda yozilishiga qaraganda kvarta yuqori eshitaladi. Ammo simfonik partituralarda (ko'pincha pedagogik adabiyotda) kvinta baland (skripka kalitidagi ifodasidek) yozilganlari ham uchrab turadi. Damli cholg'ular orkestrida *mi-bemol* sozidagi valturnada ham ba'zida katta sekstani pastga transpozitsiya qilishga to'g'ri keladi.

XIX asr boshlariga kelib o'zida ikki qator kronlar va kvart ventilni mujassam etgan qo'sh valturna yaratildi. Undagi kvatrventil yordamida *fa* sozlanishidagi valturna osonlik bilan *si-bemol* soziga o'tadi. Valturnaning kvartventili trombon, bariton va tubalarning kvartventillaridan o'zining cholg'u asbobi tanasini uzaytirishi bilan emas, balki aksincha, qisqartirishi bilan ajralib turadi. Shu sababli yuqori registrdagi tovushlarni chiqarish ancha osonlashdi. Shu bilan birga *si-bemol* sozining diapazoni yanada kengaydi va pastki registrda tabiiy tovushqatorning asosiy tovushi (eshitilishi bo'yicha kontroktava *si-bemol*) va kontroktavaning bir necha pedal tovushlarini hosil qilish imkoniyati tug'ildi.



Ammo ikkita mustaqil kronlar tizimidan tashkil topgan qo'sh valtorna o'z hajmining noqulayligi va og'irligi sababli uning takomili ustida ishlashni taqozo qilardi. Bu izlanishlar natijasida ijro jarayonida kronlari bilan o'zaro bog'lanuvchi, bir cholg'uning o'ziga o'rnatilgan ikkita mustaqil, kichik hajmdagi mukammalroq valtorna yaratildi. Bu cholg'uning *fa* sozida havo oqimi katta va kichik (qo'shimcha) trubka-kronlardan o'tadi. *Si-bemol* sozida esa (kvartventil bilan birgalikda) faqat katta trubka-kronlar orqali o'tadi. Ba'zi zamonaviy valtornalarda esa *fa* sozini *mi ga*, *si-bemol* sozini (kvartventil yordamida) *lya* soziga o'tkazuvchi qo'shimcha beshinchi ventil o'rnatilgan. U asosan yopiq tovushlarni transpozitsiya qilmasdan chalishga yordam beradi.

Barcha mis damli cholg'ular orasida valtorna o'zining keng diapazoni bilan ajralib turadi. U tor menzurali uzun quvuriga qaramasdan tabiiy tovushqatorda ikkinchidan to o'n oltinchi (ba'zida o'n sakkiz) oberton tovushlarni hosil qila oladigan cholg'udir. Unga o'rnatilgan ventil moslamalar obertonlar orasidagi intervallar oralig'ini to'ldirishga xizmat qiladi va 7, 11, 13 va 14 obertonlarning sofligini ta'minlaydi. Valtorning to'liq diapazoni va applikatorasi.

Valtorning tuzilishi va takomili bilan bog'liq bo'lgan sezilarli o'zgarishlar uning tovush sifati, tusi va dinamikasiga ta'sir qilishiga qaramasdan, mis damli cholg'ular orasida hech qaysinisi tembr va dinamik tovush bo'yoqlarining boyligi jihatidan ushbu cholg'uga tenglasha olmaydi. Uning tovushi mayin va jozibador, yopiq tovushlari esa tembrlarni o'zgartiradi. Pastki registr (birinchi oktava *do gacha*) mayin jaranglaydi. Eng pastki tovushlar esa trombonga o'xshab dag'alroq eshitiladi. Pastki registrning yuqori (kichik oktava *sol* dan baland) tovushlari yorqin ifodali sadolanadi. Ammo o'rta registrda (birinchi oktava *do* dan ikkinchi oktava *re gacha*) undanda yorqinroq va ifodaliroq hamda keng dinamik diapazonda, ya'ni *pp* dan *ff* gacha yangraydi. Valtorning yuqori registri yorqin va jarangdor bo'lib, ammo tovush balandlashgani sari ziddiyatli eshitiladi. Uning eng yuqori tovushlari (ikkinchi oktava *lya-bemol* va undan baland) *p* chalish uchun qiyinchilik tug'diradi *f* va *ff* da keskin jaranglaydi.

Valtorna keng texnik imkoniyatlarga ega. Unda tez sur'atdagi diatonik va xromatik passajlarni, oktava intervaligacha bo'lgan sakrashlarni, qo'sha va uchtalik stakkatolarni, yuqori registrda lab trellarini (ventillar bilan bajariladiganlari noaniq chiqadi) ijro qilish mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu cholg'u uchun ko'proq osoyishta va kuychan sadolanish xosdir.

Valtornada surdinadan juda kam foydalaniladi. Chunki undagi yopiq tovushlarning o'zi surdinaga hojat qoldirmaydi. Yopiq tovushning boshqacha ko'rinishi: o'ng qo'lni ichkariga chuqurroq tiqqan holda *sforzando* chalinadi va bunda o'tkir jaranglagan tovush hosil bo'ladi. Valtornada yorqin kuchli tovush chiqarish uchun uning karnayi yuqori ko'tariladi va quyidagicha ifodalanadi: (ital. — *campala in aria*, frans. — *pavillon en lair*, nem. — *schalltrichter in die Hohe*).

Valtorning katta, to'liq diapazoni orkestrda va hatto yakka ijroda ham hamisha qo'llanilavermaydi. Simfonik orkestrda cholg'uning to'liq tovush hajmi to'rtta (ba'zida oltita) valtorna orasida taqsimlanadi. Bunda birinchi, uchinchi va beshinchi partiyalarga yuqori tovushlar, ikkinchi, to'rtinchi va oltinchi partiyalarga pastroq tovushlarni chalish vazifasi topshiriladi.

Melafon (ital. — *melofono*, frans. — *melophone*, nem. — *melophon*) ko'rinishi jihatidan valtornaga o'xshasa-da, undan birmuncha qisqaroqdir. Tembri valtornaga yaqin va tuba tovushiga ham o'xshaydi. Melafon transpozitsiya qilinuvchi cholg'u bo'lib, skripka kalitida ifodalanadi va *fa* sozlanishida yozilishiga qaraganda kvinta past eshitiladi. Melafon diapazoni.


Melafonning pastki registri to'liq, lekin og'ir, qo'polroq sadolanadi. O'rta registri ifodali, yuqori registri esa ziddiyatli va eng baland tovushlari nafas bosimi orqali hosil qilinadi. Yopiq tovushlar valtornadagiga o'xshab chiqariladi va ba'zida surdina ham qo'llaniladi.

- Topshiriq.** 1. Valtorna va uning turlarini izohlang.
2. Valtorna cholg'usining tarixiy kelib chiqishini ta'riflang.

TRUBA

(ital. — *tromba*, frans. — *trompette*, nem. — *trompete*, ingl. — *trumpet*)

Truba kelib chiqishining tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi va hozir bu cholg'uni qaysi qadimiy xalq ixtiro qilganligini aytish qiyin. O'rta asrlardayoq metallardan ishlangan uzun trubalar nafaqat signal-chaqiriq uchun, balki tantanali tadbir va marosimlarni o'tkazishda qo'llanilgan. Bu cholg'udan asosan dvoryanlar va ritsarlar foydalanishgan. Yevropa trubasi *buzine* (eski frans. — *buisine*) deb nomlangan. Rossiyada trubaning qo'llanilishi X asrga borib taqaladi.



XIII asr boshlariga kelib trubalar yuqori (diskant) va past (bas) tovushlilarga ajratildi. Natijada trubalar ham valtorنالarga o'xshab turli sozlanishda past, o'rta va yuqori registrilarga taqsimlangan. XVII asrda ko'proq *re*, *do* keyinchalik *si-bemol* sozidagi trubalar qo'llanilgan va ularni nemis cholg'u ustalari Shmidt, Nagel, Xayileyn, Feyt va ingliz ustalari Dadli va U.Bullar tayyorlaganlar. XVII—XVIII asrlarda nyurnberglik usta I.Xasning trubalari eng yaxshi deb topilgan. O'sha davrda trubalar mis, bronza va kumushdan yasalgan. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida *fa* sozidagi qo'shimcha kronli, *mi*, *mi-bemol*, *re-bemol* va *do* sozidagi trubalar keng tarqalgan. Bu davrga kelib rus ustalari N.P.Kotelnikov, D.Mixaylov va S.Mixaylov hamda I.S.Xrapovskiylar tomonidan Moskva musiqa cholg'ulari fabrikasida ishlab chiqarilgan trubalar ham keng ommalashdi.

XIX asr boshlarida ventil moslamani ixtiro qilinishi natijasida tabiiy trubalar xromatiklari tomonidan siqib chiqirila boshlandi va asr oxiriga borib foydalanishdan butunlay chiqib ketdi. Ko'p sonli trubalar oilasidan, asosan, o'rta registrdagilaridan ko'proq foydalanilgan. Ular *mi-bemol*, *mi*, *fa* sozidagi trubalar bo'lib, pastki, o'rta registrleri keng va to'liq tovushli, yuqorisi keskin, ziddiyatli va tovush hosil qilishda ancha qiyinchilik tug'dirgan.

XIX asrning 80-yillarida *lya*, *si-bemol*, *do* sozlanishidagi yuqori registrli xromatik trubalar ixtiro qilindi. Ularda ikkinchi oktavaning barcha tovushlarini hosil qilish mumkin bo'lmagan. O'sha trubalar ichida muvaffaqiyatliroq chiqqani hozirgi davrda ham qo'llanilib kelinayotgan *si-bemol* sozidagi sopranino trubasidir. Fransiya, Belgiya, Shvetsariya va boshqa bir qancha mamlakatlar ijrochilik amaliyotida *do* sozidagi truba keng tarqalgan. Rossiyada XX asr boshidan Yu.G.Simmerman firmasining trubalaridan foydalanila boshlangan.

Hozirgi davrda Fransiya «Selmar» firmasining hamda Amerika «Bax-Stradivarius» firmalari ishlab chiqargan truba cholg'ulari keng tarqalgan. Estrada va jaz orkestrlari uchun baland tovushlarni osonroq chiqarishga moslangan o'ziga xos konstruksiyadagi trubalar tayyorlanadi.

Truba (yoki soprano truba deb ham yuritiladi) latun yoki tompak (mis va sink qorishmasi)dan silindrik shaklda yasalgan, 1,5m uzunlikdagi, 11mm diametrli, yarim oy shaklida ikki marta bukilgan va karnaychasi tomonga konussimon kengaygan, birlashib ketgan cholg'udir. Truba applikatorasi kornet applikatorasi bilan bir xil. *Si-bemol* sozidagi truba transpozitsiya qilinuvchi cholg'ular qatoriga kiradi. U skripka kalitida ifodalanadi va yozilishiga qaraganda katta sekunda past eshitiladi. Diapazoni va registrlarining tasnifi.

Truba mis damli cholg'ular orasida eng yuqori registrlarda ham ijro qila oladigan cholg'udir. U o'zining tovush kuchi, jozibasi shu bilan birga yengil va harakatchanligi bilan ajralib turadi. Unga o'rnatilgan ventil moslama yordamida har xil passajlar, arpedjio, sakrashlar, ventil trellari, yakka, qo'sha va uchlik stakkatolarni juda go'zal va jozibali ijro qilish mumkin. Shuningdek, kichik barabanning reziga o'xshagan frullyatoni ham chiroyli bajarsa bo'ladi. Ijro jarayonida truba tovush tusini sun'iy ravishda o'zgartirish uchun turli shakldagi surdinalar ham qo'llaniladi.

TRUBALARNING TURLARI

Truba pikkalo *si-bemol* va *lya* sozida bo'lib, undan asosan qadimgi kuylar (klarino uslubi va h.k) va orkestrning yuqori registridagi truba partiyalarini (I.Stravinskiy «Qutlug' bahor», M.Ravel «Bolero», R.Shedrin «Jo'shqin chastushkalar» va h.k) ijro qilishda foydalaniladi.

Si-bemol sozidagi truba pikkalo asosiy cholg'uga qaraganda oktava, *lya* sozidagisi esa septima yuqori eshitiladi va skripka kalitida ifodalanadi. Bu truba to'rt ventil bilan ta'minlangan. To'rtinchi ventil (cholg'u diapazonini pastga qarab biroz kengaytirish) pastki to'rtta tovushni hosil qilish va ba'zi bir nosoz tovushlarni muvofiqlashtirish uchun ham qo'llaniladi.

Kichik truba *re* va *mi-bemol* sozida bo'lib, ular Bax va Gendelning ba'zi asarlaridagi trubalarning yuqori tovushlarini chalish uchun ixtiro qilingan. Ushbu trubani Rimskiy-Korsakov va Vagner ham o'zlarining ba'zi asarlarida qo'llashgan. *Re* sozidagi kichik truba asosiy trubaga qaraganda katta tersiya va *mi-bemol* sozidada sof kvarta baland eshitiladi. Uning tuzilishi va texnik imkoniyatlari soprano trubaga o'xshash.

Alt truba *fa* va *sol* sozida bo'lib, pastki registr sadolanishini to'ldirish uchun Rimskiy-Korsakov tashabbusi bilan ixtiro qilingan. Kompozitor bu cholg'uni dastlab o'zining «Mlada» opera-baletida va keyinchalik boshqa asarlarida ham qo'llagan. Glazunov ham o'zining ba'zi asarlarida alt trubadan foydalangan. *Fa* sozidagi alt truba soprano trubaga nisbatan sof kvarta, *sol* sozida esa kichik tersiya past eshitiladi. Texnik imkoniyatlari jihatidan asosiy cholg'uga qaraganda sustroq.

Bas truba *do, re, mi-bemol* sozida bo'lib, R.Vagner tashabbusi bilan «Kolso Nibelunga» tetralogiyasida qo'llash uchun yasalgan. U skripka kalitida ifodalanadi. Keyinchalik ushbu cholg'u negizida asosiy trubaga nisbatan bir oktava past eshitiladigan *si-bemol* sozidagi truba yaratilgan. Bas trubaning texnik imkoniyatlari asosiysiga nisbatan ancha cheklangan. Uning tembr tusi trombon va valtornaning birgalikdagi sadolanishiga o'xshash. Bas truba juda kam hollarda qo'llaniladi.

- Topshiriq.** 1. *Truba cholg'usining tarixiy kelib chiqishini ayting.*
2. *Trubalarning qanday turlarini bilasiz?*

TROMBON


(ital. — *trombone*, frans. — *trombone*, nem. — *posaune*, ingl. — *trombone*)

Trombon cholg'usining ibtidosi, qadimgi rimliklarning bukik trubasi — buksina (*buccina*) hisoblanadi. Ushbu cholg'udan asosan harbiy yurishlar, turli tadbir va tantanalarda foydalanilgan. Buksinaning Yevropadagi bevosita izdoshi bas trubalar bo'lib, ular takomilga uchrashi natijasida asta-sekinlik bilan yoy shaklida bukilgan holatga keltirilgan va XV asrda kulisali truba shaklida namayon bo'lgan. Ushbu cholg'u munshtugining naychasi 25 sm gacha uzaytirilgan bo'lib, kulisa unga kiygizilgan va asosiy cholg'uning butun tanasi naycha bo'ylab harakatlangan. Cholg'uning bunday tuzilishi ijrochi uchun juda katta qiyinchilik tug'dirgan va lab apparati ishiga xalaqt bergan. Shu sababli cholg'u ustalari bitta kulisa o'rniga uni mavoziy (parallel) ravishda juftlab, cholg'uning pastki tirsagi karnayiga nisbatan yonlama harakatlanadigan holatga keltirganlar.

Shunday qilib XVI asr boshlarida mis damli cholg'ular orasida birinchi bo'lib xromatik tovushqatorli trombonga asos solindi. M. Petrorius o'zining «Musiqqa fanining tizimi» (*Suntagma musicum*, ch II 1618) risolasida trombonning to'rt xili: yuqori registr uchun katta oktava *si* dan ikkinchi oktava *re* (*mi*)gacha alt yoki diskant, katta oktava *mi* (*re, do*)dan birinchi oktava *lya* (*si*)diapazonidagi oddiy yoki to'g'ri, kontroktava *sol* dan birinchi oktava *do* (*re-sol*)hajmidagi kvarta (квартовые), kontroktava *mi* (*do-re*)dan kichik oktava *lya* (kichik oktava *si* birinchi oktava *do*)gacha bo'lgan hajmdagi oktava (октавные) trombonlar mavjud bo'lganligini ta'riflaydi.

XVIII asr boshlarida trombon asosan cherkovda, signal uchun minoralarda va juda kam hollarda orkestrda ishlatilgan. O'sha davrda ham trombonning to'rt turi mavjud bo'lib, ular: *si-*

bemol sozidagi kichik alt yoki soprano, *mi-bemol* yoki *fa* sozidagi katta alt, *si-bemol* sozidagi tenor va *mi-bemol* yoki *fa* sozidagi bas trombonlaridir. XIX asr boshlarida Germaniyada tenor trombonidan oktava past eshitaladigan kontrabas tromboni yaratiladi. R.Vagner o'zining «Kolso Nibelunga» tetralogiyasida mazkur trombondan foydalangan va undan keyin kontrabas trombon qo'llanilishda bo'lmagan. Ventil moslama ixtiro qilingandan keyin ventilli trombonlar yasala boshlandi. Ulardan harbiy orkestrlarda foydalanganlar. Hozirgi davrda ventilli trombonlar juda kam uchraydi.



XIX asr o'rtalariga kelib trombonlar oilasidan faqatgina tenor va tenor-bas trombonlardan foydalanganlar. Ammo ba'zi kompozitorlar o'z asarlari partituralarida alt va bas trombonlar uchun partiyalar yozganlar. Lekin alt trombonlarnikini tenorlar, baslarnikini esa tenor-bas trombonlar chalganlar.

Tenor trombonning asosiy tuzilishi hozirgi davrgacha o'zgarishsiz qolgan va faqat karnayi biroz kengaytirilgan. Zamonaviy trombon trubaga qaraganda ikki baravar uzun bo'lib, uch qismdan tashkil topadi: shtanga deb nomlanuvchi ikki parallel naycha; shtangaga kiygiziluvchi harakatlanadigan quvur — kulisa va karnay qismlaridan iborat. Trombon transpozitsiyalanmaydigan cholg'ular turiga kiradi. U bas va tenor kalitlarida ifodalanadi. Qoida bo'yicha orkestrdagi uchinchi bas — trombon partiyalari bas kalitida ifodalanadi.

Trombonda xromatik tovushqator kulisani navbat bilan harakatlantirish orqali hosil qilinadi. Kulisa cholg'uning munshtugiga jipslanib turgan holati *I pozitsiya* deyiladi. Bunda tabiiy tovushqator obertonlarining ikkinchisidan o'ninchisi (katta oktava *si-bemol* dan ikkinchi oktava *re*) gacha hosil qilish mumkin. II, III, IV, V, VI va VII pozitsiyalar navbati bilan kulisani pastga surish natijasida tabiiy tovushqator xromatik ravishda uch tonga pasayib boradi. Bunda o'ng qo'l kulisani harakatlantiradi. Chap qo'l esa cholg'uni ushlab turadi. Shu tarzda, tabiiy tovushqatorni kulisa yordamida pasaytirib borish tamoyili ventilli moslama yordamida pasaytirish bilan o'xshashdir. Trombonning to'liq xromatik tovushqatori. I, II, III va IV pozitsiyalarda asosiy tonlarni hosil qilish mumkin. Bu tovushlar pedal ohanglari deb ataladi. Ular P, PP nyuanslarida chalinadi va cho'ziluvchi tovushlar sifatida qo'llaniladi. Tenor trombonida katta oktava *mi-bemol* dan kontroktava *si* gacha bo'lgan tovushqatorni chalib bo'lmaydi va shuning uchun ham bu bo'lak «*o'lik zona*» (мертвая зона) deb ataladi. Trombon registrklarining tasnifi.

Buning sababi trombonda turli trubka-kronlarning yo'qligidir. Ventil moslamali cholg'ulardan farqli o'laroq, trombonda harakatlanuvchi kulis mavjudligi bois tovushdan tovushga tez va aniq o'tish ancha sust kechadi. Lekin uning kulisasini sozanda tomonidan istagancha harakatlantirilishi mumkinligi sababli tovushlar sofligi ta'minlanadi va trombon boshqa cholg'ulardan shu jihati bilan ajralib turadi. Trombonda barmoqlar texnikasi degan atama yo'q. Buning o'rniga turli sur'at va har xil nyuansdagi glissando chalish imkoniyati kengroq. Shuningdek, tabiiy tovushqatorda tuzilgan turli passajlar ham yengil ijro qilinadi. Trombonda legato shtrixi asosan ma'lum bir yoki yonma-yon pozitsiyalar orasida chalinishi, yakka yoki qo'sha attakalarni ham hosil qilishi mumkin. Har bir pozitsiyaning sakkizinchi va to'qqizinchi obertonlarida lab trellarini ham ijro qilsa bo'ladi. Ko'p hollarda trombonda tovush kuchini pasaytirish uchun surdina qo'llaniladi. Trombon *ff* kuchlanishida chalganda o'ziga xos zirillash hosil qiladi.

TROMBON TURLARI

Tenor — bas trombon tenor trombondan o'zining qo'shimcha krona va umumiy tovushqatorni sof kvartaga pasaytiruvchi kvartventili bilan farq qiladi. Qo'shimcha kronning ulanishi natijasida trombonning umumiy hajmi uzayadi va kvartventilning qo'shilishi bilan tenor


trombonning yetti pozitsiyasi o'rniga olti pozitsiya qoladi. Shu oltilik yordamida quyidagi tovushqator hosil qilinadi.

Kvartventil asosan ikkinchi obertonning eng past: katta oktava *mi-bemol*, *re*, *re-bemol* va *do* tovushlarini chiqarish uchun qo'llaniladi. Ana shu tarzda (kontroktava *si* dan tashqari) «o'lik zona» tovushqatorining tovushlari ham hosil qilinadi. Shuningdek, kvartventil glissando chalishda va texnik jihatdan murakkab tuzilishdagi alohida pozitsiyalarda joylashgan ba'zi tovushlarni chiqarishda qo'llaniladi.

Topshiriq. 1. Trombon va uning turlarini ta'riflang.

TUBA

(ital. — *tuba*, frans. — *tuba*, nem. — *basstuba*, angl. — *tuba*)



Tuba keng menzurali mis damli cholg'u bo'lib, uning uzunligi tenor trombondan ikki baravar kattadir. U XIX asrning 40-yillarida ixtiro qilingan. Bu davrgacha opera-simfonik orkestrlarda tuba o'rnida bas va kontrabas trombonlar, bombardlar, ofikleidlar qo'llanilib kelingan. Tuba konussimon uzun va keng karnayli bo'lib, uning silindrik shakldagi quvuri o'ziga xos tarzda izchil kengayib boradi va keng aylana shakldagi karnay bilan yakunlanadi. Uning bunday katta sig'im va keng hajmliligidan tovushi quyucq hamda vahimali tus kasb etadi.

Tubaga to'rt ventil o'rnatilgan. Ularning uchtasi birdaniga bosilganda tabiiy tovushqatorni uch tonga pasaytiradi. To'rtinchi kvartventil esa umumiy tovushqatorni sof kvartaga pasaytiradi. Ammo undan eng pastki ba'zi tovushlarni hosil qilishda foydalaniladi. Ayrim tubalarda beshinchi umumiy tovushqatorni 3/4 tonga pasaytiruvchi va muvofiqlashtiruvchi ventil ham o'rnatilgan. Tuba transpozitsiya qilinmaydigan cholg'ular turiga kiradi. Ammo uning asosiy boshlang'ich tovushi nomidan kelib chiqqan holda bas tubani *mi-bemol*, kontrabas tubani *si-bemol* tubalari deb yuritiladi. XX asrgacha tubalarning bunday nomlanishi ularning soziga muvofiq bo'lgan va transpozitsiyalanuvchi cholg'ular turiga kirgan. Tubaning diapazoni va applikatorasi gelikon bas bilan o'xshashdir. Uning pastki registri tovushlari to'liq, lekin beqarorroq eshitiladi. Eng past tovushlarini chalish ancha qiyinchilik tug'diradi va cho'zib turiluvchi tonlar sifatida ishlatiladi. O'rta registri mayin, chiroyli va shu bilan birga kuchli sadolanishga ega. *Sforzando* chalganda qo'ng'iroq zarblariga o'xshab ketadi. Yuqori registrda chalish ham biroz qiyinchilik tug'diradi. Bu registrda tovushlar zo'riqqan holda valtornanikiga o'xshab chiqadi va beqaror intonatsiyada jaranglaydi.


Tubaning texnik jihatdan harakatchanligi yetarli darajada bo'lib, tez passajlarni chalganda intonatsiyasi uncha toza eshitilmaydi. Stakkato shtrixi *p* ga qaraganda *f* da yaxshi chalinadi. Ventil trellari birinchi va ikkinchi ventillarida ijro qilinadi. O'rta registrda sekin sur'atdagi osoyishta kuylar, qisqa jumlar yaxshi jaranglaydi. Tubada surdina juda kam hollarda qo'llaniladi va bunda cholg'uning umumiy tovushqatori yarim tonga ko'tariladi.

Tubaning bas va kontrabas turlari ancha keng tarqalgan.

Topshiriq. 1. Tuba cholg'usiga umumiy ta'rif bering.

DAMLI CHOLG'ULAR ORKESTRNING ASOSIY MIS SOZLAR GURUHI

Asosiy mis sozlar tarkibiga quyidagilar kiradi: kornetlar, altlar, tenorlar, bariton, bas-tubalar, gelikonlar va suzafonlar. Ushbu cholg'ularning ibtidosi soprano registridagi signalchaqiriq shox-burg'ular hisoblanadi. Ular quyuq, mayin va bir xil tembrdagi tovushlari bilan ajralib turadi. XVII asr oxirlarida bu shox-burg'ularga klapan moslamalari o'rnatilgan va ularda xromatik tovushqator hosil qilish imkoniyati yaratilgan. Tovushning kuchi va texnik harakatchanligi bois shox-burg'ular harbiy orkestrlar tarkibidan joy olgan. Shu tarzda ular Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan.



Bu cholg'ularning asosiy kamchiliklaridan biri intonatsiyaning toza emasligida bo'lib, bu borada izlanishlar davom etgan. XIX asrning birinchi choragida shox-burg'ularga ventil moslama (avval bir, keyin ikki va uch ventil) o'rnatila boshlangan. Ushbu cholg'ularni takomillashtirish XIX asrning 40-yillarigacha davom etgan va saksofon ixtirochisi Adolf Saks tomonidan keng menzurali saksgornlar oilasi yaratilgan. Ular: *soprano mi-bemol*, *alt si-bemol*, *tenor mi-bemol*, *bariton si-bemol*, *kontrabas mi-bemol* va *kontrabas si-bemol* cholg'ularidir. Ularning barchasi aylana shaklda bo'lib, uch ventilli piston moslama bilan ta'minlangan. Bu cholg'ular fransiya va belgiyada keng tarqaldi. Germaniya, Avstriya, Chexiya va boshqa mamlakatlar orkestrlarida keng menzurali: flugelgorn, altgorn, tenorgorn, bariton bas va kontrabas tuba deb nomlangan shox-burg'ulardan foydalanish davom etadi. Ushbu cholg'ularning saksgornlardan farqi, ular keng va mayin tovushga ega edi.

Turli ko'rinishdagi xromatik shox-burg'ularning asta-sekinlik bilan takomillashtirilishi natijasida damli cholg'ular orkestrining asosiy guruhini tashkil qiluvchi xromatik cholg'ular oilasi paydo bo'ldi. Ularning barchasi ikkinchidan to sakiz va to'qqizinchi obertonlar hajmiga ega bo'lib, skripka kalitida (baslardan tashqari) ifodalangan. Ulardan *mi-bemol* kornet kichik tersiya yuqoriga, *si-bemol* kornet katta sekund pastga, *mi-bemol* alt katta seksta pastga, *si-bemol* tenor va baritonlar katt nona pastga transpozitsiya qilinuvchi cholg'ulardir. Kornet, alt, tenor va baritonlarning to'liq hajmi va applikatorasi, qavs ichida qo'shimcha applikatora ko'rsatilgan.

Ba'zi bariton va baslarga o'rnatilgan kvartventillar cholg'u tovushqatorini katta tersiya pastga kengaytiradi. Shuningdek, kvartventil yana birinchi va uchinchi ventillar ishini muvofiqlashtirish hamda tovush sofligini ta'minlash uchun ham qo'llaniladi. Asosiy mis cholg'ular guruhi damli cholg'ular orkestrining besh oktava, kontroktava *do* dan uchinchi oktava *mi-bemol*gacha bo'lgan hajmini qamrab oladi. Ular o'rta registrdagi ikkinchi va uchinchi obertonlardan beshinchi va oltinchi obertonlargacha ifodali hamda to'liq sadolanadilar. Ushbu registrda dinamik xilma-xillik (*pp* dan *ff* gacha) yaratish imkoniyati mavjud. Pastki registrda bu guruh cholg'ularining tovush jozibasi, zichligi va quyuqligi sustlashadi. Yuqori registrda esa har bir cholg'uning individual xususiyati namoyon bo'ladi. Ya'ni kornetlarning tovushi yorqin, ziddiyatli va yanada balandlashgan sari dam bosimi kuchayadi. Al'tlarniki ham ziddiyatli ohang kasb etadi. Tenor va baritonlarni yuqoridagilar bilan taqqoslaganda yuqori registrlari to'liq va erkin jaranglaydi, bas tovushlari esa bo'g'iq sadolanadi.

Mis cholg'ular guruhi damli cholg'ular orkestrining asosiy guruhi hisoblanadi va *saksgornlar* deb ataladi. Bular ichida alt, tenor, bariton va tubalar o'z tuzilishi hamda tovush xususiyati jihatidan flugelgornlar tarkibiga kiradi. Kornetlar esa quvur menzurasining birmuncha torligi bilan ularning ikkalasidan ham ajralib turadi. Ammo shunga qaramasdan yuqoridagi barcha cholg'ular damli cholg'ular orkestrida o'ziga xos o'rin tutadi va tuzilishi, tovushlar ohangdoshligi jihatidan bir butun tizimni tashkil qiladi. Asosiy guruh cholg'ularining eng ko'p qo'llaniladigan diapazoni (misolga qarang).

Kornet si-bemol (ital. — *cornetto*, frans. — *cornet a pistons*, ingliz. — *cornet*). Kornet deb hozirgi davrda baland sozlanishdagi keng menzurali mis damli cholg'uga aytiladi. Kornet tanasining munshuksiz uzunligi 295—320mm keladi. Truba bilan taqqoslaganda kornet quvuri kengroq va shu tufayli uning tovushi mayin taraladi. Kornetlar doirasimon va uzunchoq ellips shaklida bo'lishi mumkin. Doirasimon shakldagilarining tovushi ikkinchisiga qaraganda yumshoq va bo'g'iqroq eshutiladi. Kornetlarda aylanma ventil moslamalari bilan birgalikda to'g'ri harakatlanuvchi porshenli (pistonli) moslamalar ham ishlatiladi. Ventil moslama o'rnatilgan cholg'ular o'z tuzilishining oddiyligi va ishonchliligi uchun ham keng ommaviylashgan. Ba'zi kornetlar *si-bemol* sozidan *lya* soziga o'tish uchun maxsus kron bilan ta'minlangan. Bu diyezli tonliklardagi partiyalarni chalish uchun osonlik tug'diradi.

Kornetning pastki registri (kichik oktava *fa-diyez*dan birinchi oktava *mi* gacha) bo'g'iqroq, bo'sh sadolanishga ega. Orkestrda ushbu registrdan qoida bo'yicha boshqa cholg'ular bilan birgalikda foydalaniladi. O'rta registr (birinchi oktava *mi* dan ikkinchi oktava *sol* gacha) to'liq va mayin jaranglaydi hamda eng yaxshi registr hisoblanadi. Yuqori registr esa (ikkinchi oktava *sol* dan uchinchi oktava *do-diyez* va *re* gacha) yorqin, ammo o'rta registrga nisbatan ziddiyatliroq sadolanadi. *P* va *PP* larni chalish biroz murakkab. Ikkinchi oktava *si-bemol* tovushidan balandi kam ishlatiladi. Buning sababi sozandaning ijrochilik apparati tez charchab qolishi bilan bog'liq. Texnik mahorat jihatidan truba bilan o'xshash va mis damli cholg'ular guruhining eng harakatchan sozidir.

Kornet mi-bemol (ital. — *cornettino*, frans. — *cornet de pocht, petit bugle*, nem. — *kleinkornett, kornettino*, ingl. — *pocket cornet*) *si-bemol* kornetdan o'zining kichik hajmi bilan farqlanadi. Uning pastki registrining tovushlari beqaror bo'lib, birinchi oktava *do* dan baland tovushlar amalda qo'llaniladi. O'rta registri to'liq sadolanadi va ayniqsa yuqori registri tovushlari ahamiyatli bo'lib, mis cholg'ular guruhi ichida eng baland (ikkinchi oktava *si-bemol* dan tortib) registr *mi-bemol* kornetiga taalluqlidir. Lekin hozirgi davrda ushbu cholg'udan foydalanilmaydi.


Alt mi-bemol (ital. — *alto*, frans. — *saxhornalto*, nem. — *althorn*, ingl. — *alto*). Hozirgi davrda damli cholg'ular orkestrida altning ellipsimon aylana shakldagisi ishlatiladi. Bu cholg'u kornet bilan tenor va baritonlar orasini bog'lovchi cholg'u vazifasini bajaradi. Uning pastki registri (kichik oktava *fa-diyez*dan birinchi oktava *mi* gacha) xiraroq va vishillagan tovushga ega.

O'rta registri (birinchi oktava *mi* dan ikkinchi oktava *mi* gacha) to'liq, yorqin jaranglaydi va eng ko'p foydalaniladigan registr hisoblanadi. Yuqori registri (ikkinchi oktava *fa* dan uchinchi oktava *do* gacha) ziddiyatli va baqiroq tusga ega.

Tenor si-bemol (ital. — *flicorno tenore*, frans. — *bugletenore*, nem. — *tenorhorn*, ingl. — *tenorhorn*)

Bariton si-bemol (ital. — *eufonio*, frans. — *euphonium*, nem. — *euphonium*, ingl. — *euphonium*)

Tenor va bariton damli cholg'ular orkestri o'rta registrini tashkil qiladi, ularning ikkalasi ham to'liq va mayin sadolanadi. Bariton o'zining keng menzurasiga muvofiq pastki va o'rta registrning birinchi yarmida ancha quyuq va so'lim tovushga ega. Tenor esa pastki registrda biroz bo'g'iqroq eshutiladi. Kornet va altlardan farqli o'laroq, bu cholg'ulardan yuqori registrlarda ham foydalaniladi. O'rta registrning ikkinchi yarmi va yuqori registrda mayin hamda erkin jaranglasa, eng yuqori tovushlari biroz ziddiyatliroq chiqadi.



Texnik mahorat jihatidan harakatchan, ammo juda tez passajlar aniq eshitilmaydi. Bariton bu masalada tenorga nisbatan yanada sustroq. Ularning ikki ovozda bir-birini to'ldirishi, hamohanglik kasb etishi, kuychan va to'liq sadolanishi damli cholg'ular orkestrining eng yaxshi bezagi hisoblanadi. Burungi nashrlarda bariton partiyalari bas kalitida ifodalangan. Bunda u transpozitsiya qilinmagan.

Gelikon grekchada aylana spiral degan ma'noni bildirib, u XIX asrning 40-yillari Rossiyada ixtiro qilingan. Gelikon yelkaga kiyib chalish maqsadida spiral shaklda yasalganligi uchun ham shu nomni olgan. Uning *mi-bemol* (kichik bas) va *si-bemol* (katta bas) sozdagi turlari keng qo'llanilishda bo'lgan. Hozirgi davrda ham katta basning *si-bemol* va kichik basning *mi-bemol* deb nomlanishi shundan qolgan. XX asr boshlariga kelib, ushbu baslar eshitilishi bo'yicha notada ifodalangan va transpozitsiya qilinmaydigan cholg'ular turiga kiradi.

O'zining aylana shakliga ko'ra, bu cholg'ular mayin va biroz bo'g'iqroq tovushga ega. Ularning pastki registri katta basniki kontroktava *lya* dan katta oktava *sol* gacha, kichik basniki katta oktava *sol* dan kichik oktava *re* gacha bo'lib, kuchli va quyuq sadolanadi. O'rta registrda kichik basniki kontroktava *lya* dan katta oktava *sol* gacha, katta basniki kontroktava *mi-bemol* dan katta oktava *re* gacha to'liq va dabdabali sadolandi. Yuqori registri esa bo'g'iq hamda qattiq jaranglaydi. Orkestrlarda kichik basdan yuqori va katta basdan pastki registrlarda foydalaniladi. Hozirgi davrda gelikonlar tubalar tomonidan siqib chiqarilgan.

Cholg'ularning to'liq tovush ko'lamini va applikaturasi (kichik bas, misolga qarang; katta bas, misolga qarang; kvartventilli kichik bas, kvartventilli katta bas, misollarga qarang, 28-bet).

Damli cholg'ular orkestrida ikkita bas uchun partiyalar yozish qabul qilingan. Bunda birinchi bas kichik va ikkinchi bas katta baslar uchun mo'ljallanadi. Ko'pincha ikkala bas partiyalari ham teng bo'lib, ba'zan texnik mahoratni namoyish etuvchi partiyalar ikkinchi basga yozilmaydi. Yoki ikkala basga navbat bilan beriladi. Shuningdek, kornet, tenor va baritonga o'xshab baslarda texnik mahoratli partiyalarni aniq va yengil ijro qilish qiyin.

Suzafon (ital. — *cusofono*, frans. — *sousaphone*, nem. — *sousaphon*)

Tashqi ko'rinishi gelikonga o'xshash bo'lib, aylana shaklidagi old tomonga qaragan kattakon karnayi bilan farq qiladi. Uning diapazoni, registrlarining tasnifi va applikaturasi jihatidan gelikon va tubalar bilan bir xildir.

- Topshiriq.** 1. *Misdan yasalgan damli cholg'ularni ayting.*
2. *Ularning orkestrdagi o'rni va roliga ta'rif bering.*

ORKESTR ZARBLI CHOLG'ULARI

Katta baraban — *gran cassa* (ital.), *grosse caisse* (fransuzcha), *grosse trommel* (nemischa), *bassa drum* (inglizcha).

Katta baraban yog'ochdan yoki metallardan yasalgan gardishdan iborat bo'lib, pastki va ustki tomonlariga teri qoplangan.

Katta baraban tovush dinamikasining imkoniyatlari juda keng, unda pianissimodan to fortissimogacha tovush kuchini oshirish mumkin. Barabanda tovush hosil qilish uchun teri qoplamasining markaziy qismiga boshchasiga kigiz o'ralgan tayoqcha bilan uriladi.

Tarelkalar — *piatti* (ital.), *cumbales* (fransuzcha), *becken* (nemischa), *cumbalas* (inglizcha).

Tarelkalar metallardan yassi aylana shaklda markaziy qismlari chuqurcha qilib yasalgan juft lappaklardan iborat. Markazlaridagi chuqurchada teshiklar ochilgan bo'lib, ulardan qo'l bilan ushlab uchun tasmalar o'tkaziladi. Orkestrda ikki juft katta va kichik tarelkalardan foydalaniladi. Ularning partiyalari partiturada alohida yoziladi.

Kichik baraban — *caille claine* (fransuzcha), *tambouro piccolo* (italyancha), *kleine trommel* (nemischa).

Kichik barabanlar har xil hajmda va turli shakllarda, har xil material (yog'och, temir, alumin, latun)dan yasaladi. Kichik baraban qozonchasi 12—13sm, aylanasi 36sm bo'lib, ikkala tomonga teri yoki plastik qoplanadi va ular temir yoki yog'och qasqon bilan mahkamlanadi.

Shovqinli tovush hosil qilinadigan cholg'ularga katta va kichik barabanlar, silindrik baraban, timplipito, kastanetlar, brusok, yog'och quticha va treshetkalar kiradi.

Jaranglovchi zarbli cholg'ularga tarelkalar, buben, tamburik, treugolnik, tam-tam, qaroq, safoyl, bubenlar kiradi. Hozirgi davrda shovqinli va jarangli zarbli cholg'ular partiyalarini yozish uchun faqat bitta nota chizig'idan foydalaniladi va hech qanday kalitlar bilan ifodalanilmaydi.

Buben va tamburin — *tamburino* (italyancha).

Buben va tamburin yog'och qasqonning pastiga teri yoki plastik qoplanib yasaladi. Ularning partiyalari bir chiziqda kalitlarsiz ifodalanadi.

Treugolnik (uchburchak) — *triangel* (nemischa). Uchburchak po'lat simdan teng uchta burchak shaklida bukilib yasaladi. Uchburchaklar turli hajmda bo'ladi. Uchburchak partiyasi boshida o'lchov yozilib, bir chiziqda ifodalanadi. Uchburchakda turli nyuansni chalish va eng past tovush kuchlanishidan baland kuchlanishgacha ifodalash imkoniyati mavjud.

Kastanetalar — Ispaniya va Janubiy Italiyada keng rivojlangan xalq zarbli cholg'ularidan bo'lib, ikkita yassi yog'och qoshiqchalardan iborat. Ular kashtan qobiqlarining teng ikkiga bo'lingan shakliga o'xshaydi.

Kastanetalar qattiq va zich (qora, palisandr) daraxt yog'ochlaridan, ba'zida metallardan ham yasaladi.

Tam-tam — bronzadan yassi qilib tekislangan, markaziy qismi chuqurroq, gardishlari biroz qayrilib ishlangan aylana shakldagi patnis. Tam-tam tovush balandligi aniq bo'lmagan cholg'ular turiga kiradi. Uning fortissimodagi (*ff*) qo'rqinchli jarangi va sirli pianissimosi (*pp*) turli garmoniya ohanglari va orkestr jilosi bilan qo'shilib keta oladi. Tam-tam partiyasi bir chiziqda kalitlarsiz ifodalanadi.

Qo'ng'iroqchalar (kolokolchiki) — *timbres* (fransuzcha), *glockenspiel* (nemischa).

Qo'ng'iroqchalar eng qadimgi musiqiy cholg'ulardan bo'lib, uning vatani Janubiy Sharqiy Osiyo orollaridir. Ikki oktavalik klavishli qo'ng'iroqchalarning tovushqator hajmi yozilishi jihatdan birinchi oktava *do* dan uchinchi oktava *do* gacha bo'lib, eshitilishi bo'yicha ikkinchi oktava *do* dan to'rtinchi oktava *do* gachadir. Qo'ng'iroqchalar notasi skripka kalitida yoziladi.

Litavralar

Litavralar aniq tovush balandligiga ega bo'lgan membranafonli zarbli cholg'ular qatoriga kiradi. Ular bas kalitida yoziladi. Diapazoni jihatidan litavralar katta, o'rta va kichik turlarga bo'linadi. Katta litavra katta oktava *mi* (kam hollarda *re* yoki *fa*)dan katta oktava *si* yoki kichik oktava *do* tovushigacha sozlanishi mumkin. O'rta litavra katta oktava *lya* dan kichik oktava *re* — *mi* gacha, kichik litavra kichik oktava *do* dan *fa* — *sol* tovushlariga sozlanishi mumkin. Juda kam hollarda litavra pikkolo qo'llaniladi (uning sozlanishi kichik oktava *sol* dan birinchi oktava *do* gacha).

Odatda, bitta ijrochi ikki, uch, to'rt (ba'zan beshta) litavrada chaladi. Katta litavra ijrochining o'ng tomonida, o'rtanchasi uning to'g'risida, kichigi chap tomonida joylashadi. Teri yoki plastik membranani tortib taranglashtiruvchi mexanizmlariga ko'ra litavralar vintli yoki mexanik litavralar deb yuritiladi. Ijro oldidan litavralar sozlanadi. Litavra partiyalarining boshlanishida ular sozlanishi zarur bo'lgan tovush harflar yoki notalar yordamida yoziladi. Zarur bo'lgan hollarda yoki partiyada tovush balandligini o'zgartirish «mufa» so'zi bilan ifodalanadi. Masalan, «*mufa in B A*» (cholg'u sozini *si-bemoldan lya* ga o'zgartiring) degan joylarda litavra partiyalaridagi tinish-pauzalarda cholg'u qayta sozlanadi. Litavra tovush tusini o'zgartirish uchun ba'zida uning terisi ustiga mato yoki surdina yopib chalinadi.

Pedalli litavralar tremolo paytida yoki zarbdan keyin so'nib ulgurmagani tovush sadolarida pedalni bosish natijasida tovush balandligi yuqorilab yoki pastlab boradi va glissando paydo bo'ladi. Hozirgi zamon nota adabiyotida ushbu uslub ko'p uchraydi. Litavra partiyalari bas kalitida ifodalanadi.

Topshiriq. 1. Zarbli cholg'ular guruhini ayting.

2. Ularning orkestrdagi o'rni va roliga ta'rif bering.

O'ZBEK XALQ ZARBLI CHOLG'ULARI

Zarbli cholg'ular guruhiga: doira, nog'ora, safoil, qayroq, zang, qoshiq va qutichalar kiradi. Zarbli cholg'ular asosan ochiq havoda chalinadi, shuningdek, ulardan xalq cholg'ulari ansambli va orkestrida foydalaniladi. Umuman zarbli cholg'ular orkestrning dinamik imkoniyatlarini turli ritm-usullar hamda tovush tuzilishi bilan sezilarli darajada kengaytiradi.

Doira — aniq tovush balandligiga ega bo'lmagan va o'zbek xalq cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan zarbli cholg'ulardan biri. Doiraning gardishi yog'och (buk, tut, o'rik, yong'oq daraxtlari)dan aylana shaklida tayyorlanadi va bir tomoniga so'yilgan yosh g'unajinni terisi yoki shunga o'xshash yuqur (mayin tovush berishi uchun) teri qoplanadi.

Doira ritmik va dinamik usul imkoniyatlariga juda boy cholg'u bo'lib, u ikkala qo'lning barcha barmoqlari va shapaloq bilan ijro qilinadi.

Doira partiyasi o'ng qo'l uchun ikkita chiziqli, chap qo'l uchun ikkita chiziqli nota chizig'iga yoziladi va ular akkolada bilan birlashtiriladi.

Katta va kichik nog'oralari — turli kattalikdagi sopoldan yasalgan juft (ikkita) tuvaklardan iborat zarbli cholg'ular. Ba'zida tuvakchalar metallardan ham ishlanadi. Tuvaklarga tarang qilib tortilgan terilarning tovushi aniq balandlikka ega bo'lmasa ham qizdirilganda ko'tariladi.

Ikkala nog'oraning bir-biriga nisbatan sozi taxminan kvarta oralig'ida bo'ladi. Nog'oraga yog'och cho'plar bilan urilib, tovush hosil qilinadi. Nog'ora o'zining keskin jarangli tembri bilan ajralib turadi. Nog'ora partiyalari bir chiziqda oddiy nota yozuvida ifodalanadi. Chiziq ostida bam (past) nog'ora tovushi, chiziq ustida zir (baland) nog'ora tovushi yoziladi.

Qayroq — to'rtta silliqlangan uzunchoq qayroq toshchalardan iborat. U zarbli cholg'ular tarkibiga kiradi va turli ritmik usullarni chalish uchun qo'llaniladi. Xorazm qayroqlarining ikkitasi temirdan va ikkitasi tosh-qayroqdan yasaladi.

Qayroqni ijrochi har qo'lida bir juftdan (bosh barmog'iga bittasini va qolgan barmoqlariga boshqasini) ushlaydi va bir-biriga urishi natijasida quruq chaqqillagan tovush hosil bo'ladi.

Qayroq asosan raqs kuylarida asar koloritini boyitish maqsadida ishlatiladi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va ansambllarda asarning turli epizodlari va qismlarida qo'llaniladi. Ijro qilinadigan shtrixlar: **tremolo, staccato**.

Safoyil — zarblilar ichida o'ziga xos cholg'u bo'lib, shaqildoqlar turiga kiradi. U yuqori tomoniga ikkita katta temir halqa o'rnatilgan juft tayoqcha bo'lib, katta temir halqalarning har biriga o'n oltita temir halqachalar kiygizilgan.

Ushbu cholg'uda tovush uch xil yo'l bilan amalga oshiriladi: kichik halqachalarni titratish, ijrochining o'ng yelkasiga safoyilni urish, shuningdek, safoyilni oldinga silkitib, katta halqalarni tayoqchaga urilishini taminlash natijasida tovush hosil qilinadi.

Safoyil partiyalari bir chiziqqa oddiy nota belgilari bilan yoziladi.

Safoyil asosan raqs kuylarida xalq cholg'ulari ansambliga jo'rlik qiladi.

Qoshiq — tut yog'ochidan 160—180 mm, hajmda ikkitasi o'yib yasaladi va teri tasmachalar bilan juft qilib boylanadi. Qoshiqlarni silkitish yoki qo'lning kaftiga urish natijasida tovush hosil qilinadi. Qoshiqlar o'zi yakka holda ritmik usullarni chalishi yoki doiraga qo'shilishi mumkin.

Ushbu cholg'u dunyoning turli mamlakatlarida kastan'et yoki ispancha kastan'et kabi nomlar bilan raqqoslar raqs tushganda usulni yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Hozirgi davrda qoshiq xalq cholg'ulari orkestrida zamonaviy kompozitorlar asarlarini ijro etishda ishlatiladi.

Ko'proq qo'llaniladigan shtrixlar: **tremolo, staccato**.

- Topshiriq.**
1. O'zbek xalq zarbli cholg'ulari nomlarini ayting.
 2. Ushbu cholg'ularga ta'rif bering va ularning turli orkestrlardagi roli qanday?

DAMLII CHOLG'ULARNING ORKESTR VA ANSAMBLARDA QO'LLANILISHI

Simfonik orkestrning paydo bo'lishi XVI asr deb hisoblanadigan bo'lsa, ungacha qadimgi dunyo mamlakatlarida turli cholg'u ansambllari va ijrochilik jamoalari mavjud bo'lgan. O'sha

davrda Palestinada 4000 sozanda yashab ijod qilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Ular 12 ta boshlovchi rahbarligida 24 guruhga taqsimlanganlar. Xitoyda VII—IX asrlarda 500—700 kishilik saroy orkestrlari tuzilganligi ma'lum. Qadimgi Rimda pantomimoning asoschisi Pilad teatr tomoshalariga jo'r bo'lish uchun orkestr tarkibiga avlos, lira, kifara, kimval, sirinks va simbal kabi cholg'ularni kiritgan. Yevropada XV asrda cholg'u jamoalari jo'rligida vokal va polifonik asarlar ijro qilingan. Ammo ushbu ansambllar bir tarkibdagi cholg'ulardan tashkil topgan bo'lib, masalan: faqat fleytalar, pommerlar, sinklar, trombonlar shaklida bo'lgan. Italiyada cholg'u ansambllari cherkov xorlariga jo'r bo'lishgan. Bunda cholg'ular uchun alohida partiyalar yozilmasdan xor partiyalarini qaytarib (dubl) chalishgan. Cholg'u asboblari faqat diapazoniga qarab tanlangan va ovoz tembri hisobga olinmagan.

XVI asrning ikkinchi yarmida italiya orkestrlari tarkibi: violalar, skripkalar, fleyta, goboy, fagot, sink, trombon, litavra baraban, lyutnya, arfa, organ yoki arpsixord (klavesin) lardan tashkil topgan. Bunday olib qaraganda shuning o'zi simfonik orkestr hisoblanadi. Venetsiyalik organchi va kompozitor Jovani Gabrieli (1557—1612) birinchi bo'lib cholg'ular nomlanishini partiturada ifodalagan. Sal keyinroq ushbu tarkibdagi orkestrlar Germaniyada paydo bo'lgan. XVII asr boshlarida Fransiyada bunday orkestrlar beqaror bo'lgan. Kompozitorlar esa teatrlarning turli tarkibdagi orkestrlariga yoki saroy kapellariga moslab asarlar yozishgan.

Orkestrlarning keyingi rivoji italiyalik kompozitorlar K.Monteverdi, A.Skarlatti va fransuz kompozitori J.Ramo ijodi bilan bog'liq. Kaudio Montiverdi (1567—1643) orkestr cholg'ularini asta-sekinlik bilan xordan ajratgan holda birmuncha erkin qo'lladi va mustaqilligini ta'minladi. Bundan tashqari u torli va damli cholg'ular partiyalarini orkestr amaliyotida alohida qo'llaydi. Aleksandro Skarlatti (1660—1725) mis cholg'ular guruhiga valtornani kiritadi va bu bilan orkestr dinamik mezonini belgilaydi. Shuningdek, yog'ochli cholg'ular guruhini torlilar guruhidan ajratadi. Jan Fillip Ramo (1683—1764) Skarlattiga o'xshab yog'ochli cholg'ular guruhiga ikkita fleytani kiritadi.

XVIII asrning birinchi yarmida orkestrlar Rossiyada ham paydo bo'la boshlaydi. Shu asrning 30-yillari Anna Ioanovna saroyida rus va chet el sozandalaridan tashkil topgan orkestr tashkil qilinadi. Shu orada taniqli pomeschik va dvoryanlar imeniylarida krepostnoy orkestrlar tuziladi. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib simfonik orkestrning rivoji o'z yakunini topadi va bu Vena klassik kompozitorlari I.Gaydn, V.Motsart, L.Betxoven ijodida aks etadi. Orkestr tarkibiga klarnetning kiritilishi bilan yog'och damli cholg'ular guruhi to'liq shakllanadi. Gaydn va Motsart ijodida yog'och (fleytalardan tashqari) va mis damli cholg'ular partiyalari muqim o'rin tutadi. Betxovenning simfonik ijodida quyidagi: 2 ta fleyta, 2 ta goboy, 2 ta klarnet, 2 ta fagot, ba'zida 3—4 valtorna, 2 ta truba va 2 ta litavra jamlanishidagi kichik klassik tarkib shakllanishiga imkon yaratildi. Shuning uchun ham bunday tarkibdagi simfonik orkestr «Betxovencha» deb nomlangan. Trombon cholg'usini birinchi bo'lib, Betxoven o'zining beshinchi simfoniyasi (1808) partiyasiga kiritgan. Uning to'qqizinchi (1824) simfoniyasi orkestrning katta tarkibiga asos solgan asar hisoblanadi.

Hozirgi davrda kichik tarkibdagi simfonik orkestrning uch xil ko'rinishi mavjud. Bular: birinchisi klassik tarkibdagi turi; ikkinchisi muallif asari matniga asosanib o'zi tomonidan kamaytirilgan tarkibdagi kichik orkestr bo'lib, ular xilma-xil cholg'ular tarkibi bilan ko'pchilik kompozitorlarga xos; uchinchisi kichik simfonik orkestr bo'lib, undan teatr-sahna asarlariga jo'rlik qilishda va estrada-konsert maqsadlarida foydalaniladi. Ushbu orkestr son jihatidan beqaror va cholg'u guruhlari ham to'liq bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Odatda bunday tarkibdagi orkestrlarda bir donadan yog'och damli cholg'ular, 2—3 ta valtorna, 1—2 ta truba, 1 trombon va uncha katta bo'lmagan torli cholg'ular guruhi ishtirok etadi.

Katta simfonik orkestrda mis damli cholg'ular guruhi to'liq qatnashadi va bular: 4 ta valtorna, 2—3 ta truba, 3 ta trombon va tubalardir. Yog'och damli cholg'ularning bir nomlanishdagilari soni bilan ikkilangan, uchlangan, to'rtlangan va h.k. tarkibdagi simfonik orkestr deb ham yuritiladi. XIX asr boshlaridan orkestr ohangi rang-barangligini boyitish maqsadida uning tarkibiga turli cholg'ular kiritila boshlandi. Bular: kichik alt va bas fleytalar, ingliz shoxchasi, goboy d'amur, gekkelfon, kichik klarnet, bassetgorn, bas klarnet, saksofonlar oilasi, kontrfagot,

sarrusfon, turli xil trubalar, arfa, chelesta, royal, organ, zarbli cholg'ulardan tashkil topgan. Bunday kengaytirilgan tarkibdagi orkestrlarni o'z asarlarida kompozitorlardan G.Berlioz, R.Shtraus, N.Rimskiy-Korsakov, A.Skryabin va boshqalar qo'llaganlar.

Ammo XX asrga kelib kompozitorlar orkestr tarkibini kengaytirishga va har bir alohida cholg'udan samarali foydalanishga harakat qila boshladilar. Simfonik adabiyotda ko'pincha ikkilangan — qo'shma tarkibga yozilgan asarlar tobora ko'paya boshlaydi.

Simfonik orkestrning barcha guruhlari ichida tovush go'zalligi jihatidan yog'och damli cholg'ular guruhi o'z ustuvorligini namoyon qila boshlaydi. Bunda fleyta, goboy, klarnet, fagotlarning turli ko'rinishlari va saksofonlar oilasi tembr rang-barangligi va tovush tuslari bilan orkestr tovushlarini yanada boyitishga hissa qo'shadi. «Romantiklar», keyinchalik impressionistlar yog'och damli cholg'ular guruhining bunday yutuqlarini yuqori baholadilar va bu simfonik orkestrda ularning o'rnini belgilab berdi. Yog'och damli cholg'ular guruhining bunday sifati va go'zalligi Rimskiy-Korsakov, Skryabin, Debyussi, Ravel, R.Shtraus, S.Prokofev, Stravinskiy va boshqa ko'pgina kompozitorlar partituralarida o'z aksini topgan.

Shunday bo'lishiga qaramasdan ushbu guruhning orkestrdagi davomli sadolanishi eshituvchini toliqtiradi, shuning uchun ham simfonik partituralarda bunday namunalar uchramaydi. Ammo alohida yog'och damli cholg'ularning orkestrdagi yakka davomiy ijrosini ko'plab kuzatish mumkin. Masalan, K.M.Veber ushbu guruhdagi klarnet cholg'usini alohida ajratib ko'rsatgan va unga texnik jihatdan murakkab passajlar, ifodali kuy jumalari va cho'zimlar (pedal) ijrosini topshirgan. Ko'pincha torli cholg'ular fonida yog'och damli cholg'ular yakka jaranglagan. Yog'och damli cholg'ular partiyani kuchaytirish maqsadida juda kam hollarda bir-birini takrorlaydi. Ko'pincha to'rt ovozli garmonik bayonda yog'och damlilar guruhida har ikki juftda hamohanglik sodir bo'ladi (ikki fleyta, ikki klarnet, ikki goboy, ikki fagot va h.k.). Odatda, barcha birinchi ovozlar asosiy kuyni chalishadi. Ikkinchilari esa ikkinchi ovoz, kuy osti tovushlari yoki jo'r ovozlarni ijro qilishadi. Ba'zida esa birinchi ovozlar bilan birgalikda asosiy mavzuni chalishlari ham mumkin. Yog'och damli cholg'ular valturnalar bilan hamohanglikda yaxshi jaranglaydi.

Simfonik orkestrda mis cholg'ular guruhi 4 ta valtorna, 2—3 ta truba, 3 ta trombon va tubadan tashkil topadi. Ko'pchilik hollarda bu tarkib orttirilib yoki kamaytirilib turilishi mumkin. Mis damli cholg'ularning orkestrdagi ishtiroki kreshendo va avj-kulminatsiyada kompozitor fikrini ifodalash uchun soniga qarab belgilanadi. R.Vagner, F.List, I.Stravinskiy, A.Shyonberg va boshqa kompozitorlar partituralarida 8—10ta valtorna, 5—6 ta truba, 5—6 ta trombon, 2—3 ta tuba sonigacha orttirilgan. Zamonaviy simfonik orkestrlarda tovush kuchi va yorqinligidan tashqari mis cholg'ularning boshqa sifatlari ham keng qo'llanilmoqda. Masalan: mis cholg'ular guruhining *tutti* sadolanishida tovushlarning bir-biriga quyilishi, surdinali valturnalar, truba va trombonlar tovush bo'yoqlarining boyligi, *pianodagi* tovush mayinligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Texnik mahorat jihatidan mis cholg'ular yog'och damli cholg'ularga nisbatan sustroq. Barcha mis cholg'ular ham fortissimoda birdek kuchlanishda bo'lmasdan, har biri o'ziga xos tembr va sadolanishga ega. O'z tembrining mayinligi bilan valtorna yog'och damli cholg'ular va torli cholg'ular bilan juda hamohangdir. Shuning uchun ham simfonik orkestrda ular turli vazifani bajaradi. Mis cholg'ular o'z ichki guruhlari orasidagi turli ansambllarda o'zgacha hamohanglik kasb etadi. Masalan: trubalar, trombonlar bilan, valturnalar tubalar bilan go'zal sadolansa, pastki registrlarda tuba hamda trombonlar quyuq va to'la jaranglaydi.

DAMLI CHOLG'ULAR ORKESTRI SOZLARI

Damli cholg'ularda jamoa bo'lib ijro qilish uzoq va murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Qadimgi Misr, Eron, Gretsiya, Xitoy va Hindistonda harbiy yurishlar hamda turli tantanalarda fleyta, to'g'ri truba, har xil burg'u (shox) va barabanlar tarkibidagi ansambllardan foydalanilgan. O'rta asrlarda Yevropa damli cholg'ular orkestri tarkibiga tulum, goboy, surna, ovchilar burg'usi, tabiiy valtorna, trombon va boshqa puflama cholg'ular kirgan. XVII—XVIII asrlarda rus armiyasida orkestrlar paydo bo'la boshladi. Ularning tarkibi ko'pchilik cholg'ular (5 ta goboy,

2 ta truba, 2 ta valturna) dan tashkil topgan. XVIII asrlarda orkestr ishtirokchilari soni 20—30 gacha yetgan. Bu davrga kelib taniqli boylar saroylarida ham orkestrlar paydo bo'la boshladi. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, damli cholg'ular orkestri tarkibiga yonlama fleyta, klarnet, bassetgorn, baraban va tarelkalar kiritildi. Shu asrda ventilli moslamanning ixtiro qilinishi va yog'och damli cholg'ularning takomillashtirilishi munosabati bilan orkestrlarning ijrochilik imkoniyatlari kengaya bordi. Buning natijasida ikki xil tarkibdagi orkestr vujudga keldi. Bular: mis cholg'ular va aralash cholg'ular orkestridir. Keyinchalik esa kichik tarkibdagi mis cholg'ular, katta tarkibdagi mis cholg'ular, kichik aralash tarkib, o'rta aralash tarkib, katta aralash tarkibdagi orkestrlar qaror topdi. Kichik tarkibdagi mis cholg'ular orkestri o'z ichiga damli orkestrning asosiy cholg'ulari bo'lgan *si-bemol* sozidagi 3 ta kornet (2 ta birinchi va 1 ta ikkinchi), 2 ta alt (birinchi va ikkinchi), 2 ta tenor (birinchi va ikkinchi), bariton, 2 ta bas (birinchi va ikkinchi) va zarbli katta kichik baraban, tarelkalarni birlashtiradi. Ba'zan ushbu kichik tarkibga *si-bemol* sozidagi 2—3 ta klarnet va 2 ta truba ham kiritiladi. Bunday o'zgarish kichik orkestrning texnik va badiiy sifatlarini oshiradi. Mis cholg'ularning katta tarkibdagi orkestriga sozlarning juftlangan soni, ya'ni 2—4 ta valturna, 2—4 ta truba va 3—4 ta trombon kiradi. Hozirgi davrda bunday orkestrlar mavjud emas.

Ko'p tarqalgan orkestrlar kichik aralash tarkibdagilari bo'lib, undagi ijrochilar soni 20 kishi va o'rta aralash tarkibdagi 30 ijrochidan tashkil topadi. Ba'zida arosat tarkibdagilari ham uchraydi va undagi ijrochilar soni 25 kishini tashkil qiladi. 20 kishilik orkestrlar fleyta, 3 ta klarnet, 2 ta valturna, 2 ta truba, 2 ta baraban (katta va kichik), tarelka, 3 ta kornet, 2 ta alt, 2 ta tenor, bariton, bas cholg'ularini birlashtiradi. 25 kishilik orkestrlar esa yog'och damli cholg'ular (klarnetlar) va trombonlar hisobiga ko'payadi.

Konsert chiqishlari va estrada musiqasini chalish uchun mo'ljallangan 20 kishilik orkestrlar 1 ta fleyta (kichik fleyta bilan almashinib turadi), 3 ta klarnet (saksofon bilan almashinishi), 2 ta valturna, 2 ta truba, 3 ta trombon, katta va kichik baraban, 3 ta kornet, tenor, bariton va 2 ta bas (ulardan bittasi torli kontrabas bilan almashtirilishi mumkin) cholg'ulardan tashkil topadi.

30 kishilik orkestrlar fleyta, goboy, 6 ta klarnet, 2 ta valturna, 2 ta truba, 3 ta trombon, katta va kichik baraban (tarelkasi bilan), 4 ta kornet, 2 ta alt, 3 ta tenor, bariton va 3 ta basni o'z ichiga birlashtiradi. Ushbu orkestrning estrada shakli ikki fleyta (bittasi kichik), goboy (alt goboy bilan almashinishi mumkin), 4 ta klarnet, 3 ta saksofon (2 ta alt va tenor), fagot, 4 ta valturna, 2 ta truba 3 ta trombon, 2 ta baraban va litavra, 3 ta kornet, tenor, bariton, 2 ta bas (bittasi torli kontrabas) cholg'ulardan iborat bo'ladi.

Katta aralash tarkibdagi damli cholg'ular orkestri 60 va undan ortiq ijrochidan tashkil topadi. Ba'zi namunali harbiy orkestrlar tarkibi 80—100 kishidan ham oshadi. Bunday orkestrlarda yog'och damli cholg'ular guruhi kengayadi. Bunda *si-bemol* sozidagi klarnetlar soni ortadi va alt hamda bas klarnetlari kiritiladi. Ba'zida saksofonlar soni ko'paytiriladi. Mis cholg'ular tarkibi ham orttiriladi.

Orkestrlarning bunday tarkibi barqaror bo'lmasdan, ular doimo son va tarkib jihatdan o'zgaruvchan bo'ladi. Bu borada harbiy orkestrlar tarkibi va soni barqarorroqdir.

Damli cholg'ular orkestrining asosiy uch guruhga bo'linishida (yog'ochli guruh, asosiy guruh, xarakterli mis cholg'ular guruhi) ularning tovush temбри jihatidan farq qilishi yotadi. Bunday tafovut mis va yog'ochli cholg'ular orasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo guruhlar ichidagi cholg'ular ham o'z tovush tusi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Orkestrning asosiy guruhi hisoblangan mis cholg'ular boshqa guruhlariga qaraganda o'zaro yaqin, oiladosh hamda sadolanishi jihatidan to'liq va mayindir. Xarakterli cholg'ular guruhi oiladosh emas. Shuningdek, yog'ochli cholg'ular ham o'z tovush tulari jihatidan rang-barangdir.

Damli cholg'ular orkestri sozlarini 4 guruhga ajratishni, ularning joylashishining yangi tartibini va partiturasidagi o'rnini birinchi bo'lib, Chaykovskiy nomidagi Moskva Davlat konservatoriyasi professori N.P.Ivanov-Radkevich belgilab berdi. U o'zining oliy harbiy dirijorlar bilim yurtida o'qigan «Damli cholg'ular orkestri uchun zamonaviy cholg'ushunoslik darsligi» deb nomlangan ma'ruzasida shunday degan edi: «Menda damli cholg'ular orkestrining oldindan bir butun bo'lib shakllangan mis cholg'ular guruhini tubdan qayta joylashtirish fikri

tug'ildi. Buning sababi mis cholg'ular ikkita, ya'ni xarakterli: valtorna, truba, trombon va asosiy: kornet, alt, tenor, bariton va baslar guruhi bo'lib, yog'ochli va zarblilari bilan 4 guruhni tashkil qiladi. Bu cholg'ular tovush hosil qilinishi, tabiati va tembr-tusi jihatidan ham bunday bo'linishga ehtiyoj sezadi». Orkestrning tarkibi va to'rt guruhga bo'linishi to'g'risidagi ushbu fikr ilmiy nazariy xulosa bo'lib qolmasdan ijodiy g'oyani amalga oshirishdagi birdan bir to'g'ri yo'l ekanligini vaqt ko'rsatdi.

Orkestrning to'rt guruhga bo'linishi uning sadolanishini yanada boyitdi, turli guruhlarni taqqoslash, qo'shish va damli cholg'ular orkestriga xos faktura imkoniyatini kengaytirdi. Bunda cholg'ular orkestr guruhi bo'lishi bilan birgalikda mustaqil ansambl sifatida ham faoliyat ko'rsata oladigan va tarkibiga boshqa guruhlar cholg'ularini jalb qiladigan, bu bilan bir qancha registrlarni qamrab oladigan darajaga yetdi.

Damli orkestr cholg'ularining tovush kuchi va sozlar rang-barangligi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Mis cholg'ular yog'ochlilariga qaraganda kuchliroq eshitiladi. Ular ichida tuba va trombonlar yanada yorqinroq jaranglaydi. Bariton va baslar esa to'liq sadolanadi. Yog'ochli cholg'ular ichida klarnetlarning tovushi balandroq chiqadi. Asosiy guruhda esa kornetlar ko'proq eshitiladi. Yuqori registrlarda fleyta tovushi ajralib turadi. Orkestr guruhlari orasida asosiy guruhning tovushi kuchli chiqsa-da, truba va trombonlar tovushlari ajralib turadi.

Orkestrning barcha guruhlari ichida oiladosh cholg'ulardan tashkil topgan asosiy guruh cholg'ularini ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning tovush ko'lamiga keng bo'lib, kontroktava *mi (do)* dan ikkinchi oktava *si-bemol (uchinchi do)*gacha bo'lgan hajmni qamrab oladi. Ular o'zining ifodali sadolanishi va texnik harakatchanligi bilan orkestr yadrosini tashkil qiladi. Shuningdek, mustaqil orkestr sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Yog'och damli cholg'ular guruhi kichik oktava *re (re-bemol)*dan to'rtinchi oktava *si-bemol* (beshinchi oktava *do*)gacha bo'lgan 5 oktavalik diapazonni tashkil qiladi. Bu nafaqat o'sha guruhning balki, butun orkestrning tembr imkoniyatlarini oshiradi.

Yog'ochli guruh texnik harakatchanligi jihatidan orkestrning barcha guruhlaridan ustun turadi. Bular fleyta, goboy, klarnet, fagot va saksofon cholg'ulari bo'lib, asosiy guruhga qaraganda mustaqil ansambl sifatida kamroq qo'llaniladi. Odatda, bu yengil musiqa epizodlarida uchrab turadi. Umuman, yog'ochli cholg'ular orkestrning umumiy sadolanishini yumshatish ahamiyatiga ega bo'lgan guruhdir.

Xarakterli mis cholg'ular guruhining diapazoni: kontroktava *sol (lya)*dan ikkinchi oktava *si-bemol (uchinchi do)*gacha bo'lgan to'rt oktavadan ortiq tovush ko'lamiga ega. Ammo amalda katta oktava *fa* dan pastki tovushlar uncha qo'llanilmaydi. Chunki valtorna va trombonlar ushbu registrdan baslarga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Xarakterli guruhning yorqin umumiy sadolanishi orkestr tembri va dinamik imkoniyatlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ushbu guruh ichida truba va trombonlar sadolanishi jihatidan bir-biriga yaqin. Valtornalar esa tovush kuchi jihatidan ulardan sustroq. Ammo o'zgacha jaranglashi bilan mis va yog'ochli cholg'ularga hamohang sadolanadi. Xarakterli cholg'ulardan alohida ansambl sifatida foydalanilganda ularning tarkibiga baslar ham qo'shiladi.

Zarbli cholg'ular orkestr sadolanishini yanada jozibali qilish bilan birgalikda chalinayotgan asarning o'lchovi va usul birligini ifodali ijro qiladi. Katta baraban, odatda, taktning kuchli hissasini bo'rttirib ko'rsatadi. Uning zarblari baslar bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Ayniqsa, bu holat marsh va raqs musiqalari ijro qilinganida ko'proq seziladi. Ba'zida esa kuchsiz hissalarini ham zarbli cholg'ular chalishi mumkin. Tarelka zarblari ko'pincha katta baraban zarblari bilan birga tushadi. Gohida esa u bilan navbatma-navbat kelishi kuzatiladi. Bunda katta baraban kuchli hissalarini chalsa, tarelkalar jo'rnavorlar bilan birgalikda kuchsiz hissalarini ijro qiladi.

Kichik baraban o'rta va yuqori registrlil cholg'ular bilan hamohangdir. U texnik jihatdan juda harakatchan va aniq ajralib turuvchi tovushga ega. Shuning uchun ham unga orkestrda yakka chalish (solo) uchun partiyalar yoziladi va uning tremolosidan unumli foydalaniladi.

Uchburchak (треугольник) — orkestrning yuqori registri bilan hamohangdir. U ko'pincha yakka zarblar, ritmik shakllar va tremololar bilan orkestr ijrosida qatnashadi.

Buben va kastaneta cholg'ulari orkestrda asosan xalq raqs kuylarida qo'llaniladi.

Litavralar juda katta dinamik diapazonga ega bo'lgan, texnik harakatchan cholg'ulardir. Ular ko'pincha baslar bilan birgalikda past tovushlarni kuchaytirish uchun va truba, trombonlar bilan hamohang holda ishlatiladi.

Ba'zan ksilofon, vibrofon va qo'ng'iroqcha (колокольчик)ning orkestrda qo'llanilishi uning sadolanishi va tovush jozibasini yanada boyitadi.

- Topshiriq.**
1. Qaysi orkestr va ansambllar tarkibida damli cholg'ular ishtirok etadi?
 2. Damli cholg'ular orkestri tarkibini gapiring.
 3. Damli cholg'ular orkestri diapazoni qanday?
 4. Damli cholg'ular qanday guruhlarga bo'linadi?

ESTRADA ORKESTRLARI VA ANSAMBLARI TARKIBIDAGI DAMLI CHOLG'ULAR

Estrada orkestrining turi unda qatnashadigan damli cholg'ular soni bilan belgilanadi. Orkestr asosini (klarnetlar bilan almashinib turuvchi) saksofonlar guruhi, mis cholg'ular (truba va trombonlar) guruhi, tarkibiga gitara, fortepiano, kontrabas va zarbli cholg'ularni birlashtirgan ritm guruhi tashkil qiladi. Ba'zan bu asosiy guruh tarkibiga skripka, elektr-klavish, vibrafon va boshqa cholg'ular ham kiritilishi mumkin.

Bunday orkestrning kichik tarkibi: 2 ta alt va 1 ta tenor saksofonlari, 2 ta truba, 1 ta trombon, zarbli cholg'ular, gitara, kontrabaslarni o'z ichiga birlashtiradi.

O'rtacha tarkib yuqoridagilaridan farqli o'laroq tenor saksofonning ikkitaligi va trubaning 3 taligi bilan ajralib turadi.

Katta tarkibdagi estrada orkestrida esa saksofon bariton qo'shiladi, truba va trombonlar soni (uch yoki to'rttaga) orttiriladi.

Estrada-simfonik orkestr (simfojaz)

Estrada simfonik orkestri (simfojaz). Orkestrning ushbu turi aniq tarkibga ega bo'lib, uning keng tarqalgan ikki xil ko'rinishi: «mayin sadolanuvchi» va «to'liq» yoki «katta» simfojaz turlari mavjud. «Mayin» simfojazda mis damli cholg'ular deyarli qo'llanilmaydi. Ba'zan juda cheklangan miqdorda uchrashi mumkin. Ushbu tarkibda ustuvor guruhlardan biri torli-kamonli cholg'ular bo'lib, ular 6—8 ta birinchi skripka, 4—6 ta ikkinchi skripka, 2—4 ta skripka alt, 2—3 ta violonchel va 1—2 ta kontrabasdan tashkil topadi. Yog'och damli cholg'ular: 1—2 ta fleyta, 1 ta goboy, 1—2 ta klarnet va fagotlardan iborat. Ritm guruhi, odatda, zarbli cholg'ular majmuasi, gitara va klavishli cholg'ularni o'z ichiga birlashtiradi. Yuqoridagilardan tashqari «mayin» simfojaz orkestri tarkibiga: vibrafon, arfa, elektroklavish, saksofon, valtorna va boshqa cholg'ular ham kiritilishi mumkin.

Katta simfojazda torlilar guruhi kengayadi. Yog'och damli cholg'ular guruhi 2—3 ta fleyta, 1—2 ta goboy, 2—3 ta klarnet, 4—5 ta saksofon (2 ta alt, tenor va bariton yoki 2 ta alt, 2 ta tenor va bariton)gacha yetadi va bunga qo'shimcha fleyta pikkalo, fleyta alt, ingliz shoxi (английский рожок), bas klarnetlar ham ishtirok etsa bo'ladi. Mis cholg'ular guruhi esa 3—4 ta valtorna, 3—4 ta truba, 3—4 ta trombon va tubagacha ko'payadi. Ritm guruhi litavra va boshqa zarbli cholg'ular hisobiga boyib boradi.

Estrada orkestri tarkibi qisqacha bayon qilingan bo'lsa-da, unda damli cholg'ularning ishtiroki katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rinib turibdi. Estrada orkestri va simfojazda damli cholg'ularni qo'llashning imkoniyatlari juda keng. Ko'pincha ushbu cholg'ularga yakka (solo) partiyalar yozilib, orkestr jo'rligida ijro qilinadi. Damli cholg'ularning alohida guruhlari ham yetarli darajada ifodali sadolanadi.

Yog'och damli cholg'ular guruhi har xil kuychan, garmonik va cho'zimli (pedal) tovushlarni ijro qilish vazifalarini bajaradi. Simfojazda esa torli-kamonli guruhlar bilan kuy jumllarini navbatma-navbat takrorlash uchun ham ishlatiladi. Klarnetlar guruhi pastki registrlardan

ikkinchi va uchinchi oktavalargacha yorqin sadolanadi. O'rta registrda esa ifodasi sustroq kechadi.

Saksofonlar guruhiga kuy taqsimlashda ovozlar harakati asosiy kuy yo'nalishi bilan ritmik hamohanglik kasb etishi zarur. Akkordlar esa zich joylashadi. Klarnet va saksofonlarning jo'rlikda chalishi orkestr tovush bo'yoqlarini yanada go'zallashtiradi. Ko'pincha orkestrda klarnet saksofon alt va tenor, ikkita klarnet va saksofon tenor yoki klarnetlar unisoni bilan saksofon tenor jo'rnavozligidan foydalaniladi. Ayniqsa pastki registrda saksofonlar bilan mis cholg'ularning qo'shilib chalishi ushbu registr kuchini yanada oshiradi.

Estrada orkestrlarida mis cholg'ular turli vazifalarni bajaradi. Ular kuy yetakchisi sifatida ikkinchi ovoz, cho'zimli tovushlar (pedal) va jo'rnavoz sifatida ham qatnashadi. Ushbu guruhda ovozlar harakati odatda zich joylashadi. Mis cholg'ular estrada orkestrida va simfojazda ham surdinalar bilan chalinadi. Bunda surdina ushbu guruh cholg'ulari tovush tusini o'zgartiribgina qolmasdan, ularning tovush kuchini shu darajada susaytiradiki, natijada mis cholg'ular skripka, fleyta, klarnet, royallar ovoz kuchiga tenglashib qoladi.

Katta tarkibdagi orkestrlarda mis cholg'ulardan trubalar alohida va trombonlar alohida kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda trubalar ko'pincha murakkab passajlarni chalsa, trombonlar cho'ziluvchi yoki akkord tovushlarni ijro qiladi. Zamonaviy cholg'ulashtirishda esa trombonlarga ham alohida tez sur'atda chalinadigan kuy jumalari topshirilmoqda. Saksofonlar truba va trombonlar bilan qo'shilganda o'z diapazonlarining o'rta registrlarida chalinadi. Yuqori va o'rta registrlarda uchta trombonlarning cho'ziluvchi (pedal) tovushlari juda qiziqarlidir. Shuningdek, ularning unisonlari ham yorqin va kuchli sadolanadi.

Simfojazning katta tarkibida mis cholg'ular uchinchi eng kuchli guruh hisoblanadi. Bular: valtorna, truba, trombon va tubalardir. Ularning har biri melodik, garmonik va cho'ziluvchi (pedal) tovushlarni chalish vazifalarini bajarishi mumkin. Ushbu vazifalar simfojaz orkestri mis cholg'ular guruhining barchasiga ham taalluqlidir. Estrada ansambllarida qo'llaniladigan damli cholg'ular bir butun guruhni tashkil qiladi va ancha keng tarqalganlari o'z tarkibiga 2, 3, 4, 5 va 6 cholg'uni birlashtiradi. Bu tarkibga: saksofonlar, truba, trombonlar va keyingi paytlarda (yakkaxon sifatida) fleyta ham qo'shildi.

Ansamblda ikkita damli cholg'u ishtirok etadigan bo'lsa bular asosan truba va tenor saksofon hisoblanadi. Bularning texnik imkoniyatlari deyarli bir-biriga teng bo'lib, ikki ovozli kuyda — truba birinchi ovozni chalsa, saksofon ikkinchini ijro qiladi. Ularning unisonidan juda kam hollarda foydalaniladi. Ammo saksofon alt bilan yaxshi eshitiladi. Tenor saksofon va trubaning polifonik kuydagi qo'shilishi jaz ansambllarida ko'plab uchraydi. Ba'zida esa bu cholg'ularga oktava unisonida cho'zimli (pedal) tovushlarni chalish topshiriladi. Truba bilan trombonning sadolanishi truba bilan saksofonnikiga qaraganda ancha salobatli. Lekin ikki ovozli kuyni chalganda ansambl mutanosibligiga ozroq putur yetadi. Bu ikki cholg'u oktava orasida truba yuqori va trombon pastki ovozni chalsa ancha yaxshi sadolanadi. Unisonida esa trombon ovozi kuchli eshitiladi.

Diksilemda uchta damli cholg'u: truba, klarnet (yoki saksofon soprano) va trombondan foydalaniladi. Vokal-cholg'u ansambllarida esa truba, tenor saksofon (kam hollarda alt saksofon) va trombonlar ishlatiladi. Akkordli tovushlarda truba yuqori ovoz, tenor saksofon o'rta va trombon pastki ovozni chaladi. Ushbu guruh ifodali sadolanishi bilan birgalikda keng dinamik diapazonga ega. Ba'zida ushbu cholg'ularning vazifasi boshqacha taqsimlanishi ham mumkin. Masalan, truba asosiy kuyni chalsa, tenor saksofon va trombon cho'ziluvchi (pedal) tovushni ijro qiladi. Yoki kuyning oktava shaklida chalinishi ifodali chiqadi. Bunda saksofon truba bilan ham, trombon bilan ham birdek hamohang bo'la oladi. Kuyning yo'nalishi unison va polifonik tarzda ham kechishi mumkin. Shuningdek, ushbu guruh jo'rnavoz tarzida ham qo'llaniladi. Guruh 2 ta truba va trombon shaklida qo'llanilganda bir-biriga hamohang bo'lsa-da, tembr jihatidan uncha boy bo'lmaydi.

Guruh to'rta cholg'udan: 2 ta truba, saksofon tenor va trombondan tashkil topsagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo 2 ta truba va 2 ta trombon bo'lsa, hamohang va kuchli sadolanishi bilan birga diapazoni tor bo'lib qoladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan tarkiblarning

barchasi ham sharoitdan kelib chiqqan holda ansamblda qoʻllaniladi. Yaʼni yuqorida 2 ta truba, pastda tenor saksofon va trombon yoki ikki trombon. Kuy yoʻnalishining akkord shakli tor yoki keng joylashuvi, baʼzan bunday joylashuvlarning navbat bilan kelishi ham kuzatiladi. Choʻzimli (pedal) tovushlarning barcha koʻrinishlari ham qoʻllanilishi mumkin. Diksilendda truba, klarnet (soprano saksofon) va trombonlardan tashqari tubadan ham bas vazifasini bajarish maqsadida foydalaniladi. Bunda trubaga asosiy tema, klarnetga tez chalinadigan jumlar va ularni toʻldirish, trombonga choʻzimli tovushlar va baʼzan solo chalish topshiriladi. Bunda klarnet trubadan yuqori va trombon past ovozlarni chaladi. Cholgʻularning bunday tarzda taqsimlanishi kuyning akkord shaklidagi sadolanishida ham qoʻllaniladi.

Estrada ansamblida 5—6 ta damli cholgʻu qatnashganida, ayniqsa, *tutti* akkordli sadolanishida orkestr jarangiga yaqinlashadi. Guruhning bunday tarkibi ansambl umumiy sadolanishini yanada boyitadi. Koʻpincha guruh quyidagi tarkibda boʻladi: 2 ta truba, saksofon, 2 ta trombon; 3 ta truba, 2 ta trombon; 3 ta truba, saksofon, 2 ta trombon; 2 ta truba, 2 ta saksofon, 2 ta trombon. Truba va trombon baʼzida mustaqil vazifalarni bajaradi. Saksofon esa baʼzi koʻrinish (epizod)lardan tashqari trubalarga ham, trombonlarga ham qoʻshilishi mumkin.

- Topshiriq.**
1. *Estrada orkestr va ansambllarining turlarini ayting.*
 2. *Estrada-simfonik (simfojaz)orkestri tarkibiga qanday cholgʻular kiradi?*
 3. *Estrada-simfonik orkestrlarining qaysi turlari keng tarqalgan va tarkibiga qanday cholgʻular kiradi?*
 4. *Ushbu orkestrlarda damli cholgʻularning bajaradigan vazifalarini bilasizmi?.*

1-mavzu. DAMLI CHOLG'ULAR ORKESTRI VA UNING GURUHLARI

DAMLI CHOLG'ULAR ORKESTRINING TARKIBI

Damli cholg'ular orkestri to'rt guruhdan tashkil topadi, bular: asosiy guruh, mis damli cholg'ular xarakterli guruhi, yog'ochli cholg'ular guruhi va zarbli cholg'ular guruhi deb yuritiladi.

Damli cholg'ular orkestrining asosi uning birinchi guruhi bo'lib, uning tarkibi (I—II) kornetlar, (I—II) altlar, (I—II va III) tenorlar, bariton va (I—II) baslardan tashkil topadi. U boshqalariga nisbatan ko'proq jipslashgan, tovush tulari o'zaro o'xshash va orkestr diapazonining qariyb butun hajmini (eng yuqori registridan tashqari) qamrab oluvchi guruh hisoblanadi.

Ushbu guruh partiyalarida ko'pincha asarning asosiy melodik hamda garmonik o'zagi mujasmlanadi.

Xarakterli mis damli cholg'ular guruhi tarkibiga: (I—II va ba'zan III) trubalar, (I—II—III va IV) valtornalar, (I—II va III) trombonlar kiradi. Mazkur guruh asosiy cholg'ular tembrini boyitadi va dinamik kuchini oshiradi.

Yog'ochli damli cholg'ular guruhiga (I—II va kichik) fleytalar, (I—II) goboylar, kichik klarnet Es, (I—II—III) klarnetlar va (I—II) fagotlar kiradi.

Yog'ochli cholg'ular guruhi orkestrning umumiy yuqori tovush ko'lamini kengaytirish va sadolanish tembrini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Zarbli cholg'ular guruhi ma'lum bir balandlikka ega bo'lgan va ega bo'lmagan cholg'ulardan tashkil topadi. Uning birinchi turdagilari litavralar, ksilofon va qo'ng'iroqcha (колокольчики) bo'lsa, ikkinchilari kichik baraban, katta baraban, tarelkalar, uchburchak (треугольник), buben va kastanetalardir. Zarbli cholg'ular guruhi asosan ritmik, dinamik va koloristik sadolanish vazifalarini bajaradi.

Damli cholg'ular orkestri uch xil tarkibda tashkil qilinadi, bular: katta, o'rta va kichik tarkibdagi orkestrlar bo'lib, jadvalda quyidagicha aks etadi:

Katta tarkib	O'rta tarkib	Kichik tarkib
Fleyta (I, kichik)	Fleyta (kichik)	Fleyta (kichik)
Fleyta (I—II)	—	—
Goboy I	Goboy	—
Goboy II	—	—
Kichik klarnet Es	Kichik klarnet Es	—
Klarnet B I	Klarnet B I	Klarnet B I
Klarnet B II	Klarnet B II	Klarnet B II
Klarnet B III	Klarnet B III	—
Fagot I	—	—
Fagot II	—	—
Valtorna Fa I	Valtorna Fa I	Valtorna Fa I
Valtorna Fa II	Valtorna Fa II	Valtorna Fa II
Valtorna Fa III	—	—
Valtorna Fa IV	—	—
Truba B I	Truba B I	Truba B
Truba B II	Truba B II	—
Trombon I	Trombon I	Trombon
Trombon II	Trombon II	—
Trombon III	Trombon III	—
Litavralar	—	—

Katta tarkib	O'rtta tarkib	Kichik tarkib
Kichik baraban	Kichik baraban	Kichik baraban
Buben, treugolnik	Buben, treugolnik	Buben, treugolnik
Katta baraban va tarelkalar	Katta baraban va tarelkalar	Katta baraban va tarelkalar
Kornet B I	Kornet B I	Kornet B I
Kornet B II	Kornet B II	Kornet B II
Alt Es I	Alt Es I	Alt Es I
Alt Es II	Alt Es II	Alt Es II
Tenor B I	Tenor B I	Tenor B I
Tenor B II	Tenor B II	Tenor B II
Tenor B III	Tenor B III	—
Bariton B	Bariton B	Bariton B
Bas I	Bas I	Bas I
Bas II	Bas II	Bas II

Izo h: Hozirgi davrda katta va o'rtta orkestrlar tarkibiga saksofonlar guruhi (alt Es I, alt Es II, tenor B I, tenor B II, bariton Es) ham kiritiladi.

2-m a v z u. DAMLI CHOLG'ULAR ORKESTRINING ASOSIY GURUHI

Damli cholg'ular orkestrining asosiy guruhiga kornetlar, altlar, tenorlar, bariton va baslar kiradi.

Ushbu cholg'ularning tovushqator asosi tabiiy tovushlardan tashkil topgan bo'lib, ular dam bosimi (передувания) orqali hosil qilinadi. Xromatik tovushqator esa ventilli moslama yordami-da amalga oshiriladi.

Kornet, tenor va bariton B tizimidagi cholg'ular sirasiga kiradi. Ularning tabiiy tovushqatori *si-bemol* tovushidan boshlanib sozlanadi.

Alt Es tizimidagi cholg'u bo'lib, uning tabiiy tovushqatori *mi-bemol* tovushidan boshlanib, shunga sozlanadi.

Birinchi bas Es tizimida bo'lib, uning tabiiy tovushqatori *mi-bemol*dan boshlanadi. Ikkinchi bas B tizimida va uning tovushqatori *si-bemol*dan boshlanadi.

Kornet, alt, tenor va bariton transpozitsiyalanuvchi cholg'ular sirasiga kiradi. Ya'ni kornet notada yozilishiga qaraganda katta sekunda past sadolansa, tenor va bariton katta nona (oktava orqali katta sekunda) past, alt esa katta seksta past eshitiladi. Shuning uchun ham kornetga partiya yozilgan paytda notalar haqiqiy eshitilishiga nisbatan katta sekunda, tenor va baritonga katta nona, altga esa katta seksta intervalida baland ifodalanadi.

1-nota namunasi:

Kornet
Tabiiy tovushqator

Yozilishi

Eshitilishi

Registrlar

Pastki O'rtta Yuqori

Ishchi diapazon bo'lagi

Tenor
Tabiiy tovushqator

Yozilishi

Eshitilishi

Registrlarning umumiy diapazoni

Pastki O'rtta Yuqori

Ishchi diapazon bo'lagi

Bariton

Tabiiy tovushqator

Registrlar

Yozilishi

Eshirilishi

Pastki

O'rta

Yuqori

Ishchi diapazon bo'lagi

Alt

Tabiiy tovushqator

Registrlarning umumiy diapazoni

Yozilishi

Eshirilishi

Pastki

O'rta

Yuqori

Ishchi diapazon bo'lagi

Baslar transpozitsiya qilinmaydigan cholg'ular hisoblanadi va qanday eshitilsa, shundayligicha yoziladi.

2-nota namunasi:

Bas I

Tabiiy tovushqator

Registrlarning umumiy diapazoni

Yozilishi

Eshirilishi

Pastki

O'rta

Yuqori

Ishchi diapazon bo'lagi

Bas II

Tabiiy tovushqator

Registrlarning umumiy diapazoni

Yozilishi

Eshirilishi

Pastki

O'rta

Yuqori

Ishchi diapazon bo'lagi

O'zining aniq intonatsiyasi, to'liq sadolanishi, tovushning yengil hosil qilinishi va applikatorining qulayligi jihatidan asosiy guruh cholg'ularining quyidagi diapazon bo'lagi eng maqbuldir.

3-nota namunasi:

Kornet

Yozilishi

Eshirilishi

Tenor va bariton

Bas I

Yozilishi

Eshirilishi

Bas II

Yozilishi

Eshirilishi

Yozilishi

Eshirilishi

Yuqori registrda, tovushlar tobora balandlashgani sari keskin va kuchli sadolanadi. Pastki registrda esa o'z kuchini yo'qotadi va unchalik toza chiqmaydi.

Asosiy guruh cholg'ularining texnik imkoniyatlari turlicha bo'lib, ularning ichida eng tezkori kornet hisoblanadi. Bariton va tenor bu borada kornetga ancha yaqin. Ammo sadolanishining bosiqliqi sababli tez chalinadigan passajlarni ular zarur aniqlikda ijro qila olmaydilar.

Alt o'zining texnik imkoniyatlari jihatidan kornet, tenor va baritonlarga qaraganda biroz sustroqdir. Ushbu guruh cholg'ulari tarkibiga kiruvchi baslar esa ularning barchasiga qaraganda ham sust hisoblanadi.

Topshiriq. 1. Tabiiy sadolanishli quyidagi namunalarni kornet uchun yozib chiqing.

4-nota namunasi:




5-nota namunasi:



2. Tabiiy sadolanishli quyidagi namunalarni tenor uchun yozib chiqing.

6-nota namunasi:



7-nota namunasi:



3-m a v z u. XARAKTERLI MIS CHOLG'ULAR

Valtorna. Hozirgi davrda valtornaning Ef turi keng tarqalgandir. Ushbu rusumdagi valtorna-ni tabiiy tovushqatori *fa* tovushidan boshlanadi va yozilishiga qaraganda sof kvinta past eshutiladi. Ef valtornasining partiyasi haqiqiy sadolanishiga nisbatan kvinta yuqori yoziladi. Pastki registrda esa Ef valtorna partiyasi eshutilishiga qaraganda bas kalitida sof kvarta past yoziladi.

8-nota namunasi:

Valtorna F

Yozilishi

Eshitilishi

Valtorna diapazonining eng maqbul bo'lagi quyidagichadir.

9-nota namunasi:

Yozilishi

Eshitilishi

Ushbu bo'lakchada valtorna yumshoq va ifodali sadolanadi.

